

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FAKULTETI TALABSI
HAYDAROVA NARGIZANING bakalavr darajasi olish uchun
“TARJIMA NAZARIYASINI O‘QITISHDA INNOVATSION
METODLARDAN FOYDALANISH”**

mavzusida bajargan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruv malakaviy ishi Tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrasining 2014 yil
“ ____ ” may yig‘ilishida muhokama qilindi
va himoyaga tavsiya etildi.
Bayonnoma №

Kafedra mudiri:

f.f.n.Turdiyeva N.Yo

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| Kirish..... | 3 |
| I BOB. Ta'limda qo'llaniladigan innovatsion metodlar tasnifi | |
| 1.1. O'qitishning maxsus qonuniyatlari..... | 7 |
| 1.2. Innovatsion metodlarning nazariy asoslari..... | 17 |
| I BOB bo'yicha xulosa..... | 25 |
| II BOB. Tarjima nazariyasi fanini noan'anaviy ma'ruza asosida o'qitish | |
| 2.1. Tarjima nazariyasini o'qitish metodlari haqida tushuncha..... | 28 |
| 2.2. Ma'ruzani o'tkazishning interaktiv usullari..... | 31 |
| II BOB bo'yicha xulosa..... | 34 |
| III BOB. Tarjima nazariyasi seminarlarini interaktiv usulda tashkil etish | |
| 3.1. O'qitish usullari va seminarlarni o'tkazish texnologiyasi..... | 37 |
| 3.2. Tarjima nazariyasi seminarlarida o'yinlar tashkil etish..... | 45 |
| III BOB bo'yicha xulosa..... | 51 |
| Xulosa..... | 54 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... | 56 |
| Ilova | |

KIRISH

«Tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shavqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralar bor. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo».

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik fanida sezilarli o'zgarish yuz berdi. Tilshunoslikda bir qancha ilmiy fan sohalari paydo bo'ldi, lingvistik pragmatikani o'z ichiga olgan kommunikativ tilshunoslik shular jumlasidandir. Lisoniy faoliyat keng miqyosda, turli omillarga bog'liq holda o'rganila boshlandi. Nutqiy muloqotda (matnda) inson (shaxs) faktori muhim rol o'ynashiga ahamiyat berildi. Til tizimi va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelinayotgan tilshunoslik doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga doir tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Tilshunoslik yana bir soha-kognitiv lingvistika sohasi bilan o'zini boyitdi. Tarjima nazariyasiga ham kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondoshila boshlandi. Tarjima faoliyatida kognitiv dissonans (bilish tizimidagi mos kelmaslik) tushunchasi paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov o'zining «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida ta'kidlaganidek «Bugungi kunda jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda va hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir», – deb ta'kidlagani bejiz emas [1, 5]. Prezidentimizning bu fikri ayniqsa ingliz tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan ingliz tiliga madaniyatlararo muloqotni tashkil qilishda eng ko'p uchraydigan, tarjima jarayonining turli aspektlaridagi tarjimaviy muammolarning sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganishda qator vazifalarni hal qilish vazifasini ilgari surmoqda.

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Ko'p sohalar qatori rivojlanib borayotgan ta'lim sohasi bugungi kunda kun sayin rivojlanib bormoqda. Zeroki bugungi o'sib borayotgan avlodni har tomonlama mukammal kadr qilib o'stirishda

ta'limning o'ziga xos roli mavjud. O'quv jarayonini samarali va qiziqarli shaklda tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Bu borada yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda biz mazkur ishimiz bilan dars jarayonini interaktiv usulda tashkil etishga ko'maklashishni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz. Ishimiz davomida ayniqsa bugungi kunda rivojlanib borayotgan turli xalqlar o'rtasidagi madaniyat sohasiga ko'prik vazifasini bajarayotgan tarjima sohasi asosi bo'lgan tarjima nazariyasini o'qtishning innovatsion usullariga to'xtalib o'tamiz.

Ishning nazariy ahamiyati. Mazkur ish davomida Alimova D.A, Axmetova K.I, Abdullayeva R.M, Bekmuradov A, Gulboev T, Karimova V, Ochilov M, Tojiev M, Salaxutdinov R, Barakaev M, Abdalova S, Tolipov U, Usmonboeva M. Xujaev N, Ziyomammedov B, Musayev Q, G'aybulla S. kabi olimlar yetuk tarjimonlarning, pedagoglarning fikrlariga to'xtalib o'tamiz. O'z navbatida shu nazariyalar asosida biz o'z qarashlarimizni bayon qilganmiz. Bu esa ishning nazariy qiymatini belgilab beradi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishimiz davomida tarjima nazariyasi darslarida qo'llash mumkin bo'lgan turli pedagogik metodlar va turli didaktik o'yinlarga to'xtalib o'tilgan. Har bir interaktiv o'yinlarni o'tkazish jarayoniga batafsil izoh berilgan. Ma'ruzalarni noananaviy shaklda tashkil etish bo'yicha maslahatlar bayon qilinganligi amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Ishning maqsadi. Tarjima nazariyasi fanining ma'ruza va seminarlarini interfaol usullarda, innovatsion texnologiyalardan, axborot texnologiyalridan foydalangan holda tashkil etishni shakllantirishga ko'maklashish va fanga tegishli ba'zi taklif va mulohazalarni taqdim etish.

Qo'yilgan maqsadga muvofiq quyidagi **vazifalarni** hal qilish rejalashtirildi:

- tarjima nazariyasi fani ma'ruza va seminar darslarini o'tkazishda turli ta'lim texnologiyalarini taqqoslagan holda samarali shaklini tanlab olish;
- tarjima nazariyasi fanida qo'llash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyalari prinsiplari asosida ularni klassifikatsiya qilish;

- turli didaktik o‘yinlar ichidan tarjima nazariyasi fani ma’ruzalari va seminarlari davomida qo‘llash mumkin bo‘lgan shaklini tajriba asosida tanlab olish;

Tarjima nazariyasi fanida qo‘llash mumkin bo‘lgan turli didaktik o‘yinlarning individual o‘ziga xos shaklini shakllantirish.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunga kelib dars jarayonini noan’anaviy shaklda tashkil etish butun dunyo olimlarining diqqat-e’tiborini tortib kelayotgan, eng muhim tadqiqot obyekti hisoblanayotgan qiziqarli masalaga aylanib bormoqda. Masalaga doir tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: pedagogik, falsafiy, lingvistik, tarjimashunoslik aspektida o‘tkazilgan tadqiqotlar.

Masalan, pedagogik yo‘nalishda:

Yevropalik olim V.I.Zagvyazinskiy «yangi» tushunchasiga izoh berib, ta’limdagi «yangi» faqatgina bu g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan betakror yondashuvlar, metodlar, texnologiyalar majmuidir deb ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbek olimlaridan R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o‘qitish va tarbiya berishda avval ma’lum bo‘lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘quv jarayonida xususan tarjima nazariyasi fanida qo‘llaniladiga turli innovatsion va interfaol o‘yinlarni tanladik.

Tadqiqot predmeti sifatida turli ma’lumotlarni tarjima qilish jarayonini o‘rgatishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos pedagogik vositalarni tanladik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan ifodalandi:

Tarjima nazariyasi va tarjimaning boshqa turlarini o‘rgatishga asoslangan fanlarni yangicha shaklda o‘tkazish;

Tarjima nazariyasi faniga obyektiv yondashuvni tashkil etish;

Umumnazariy fanlarni yangi usullarda olib borishga ko‘maklashish;

Tarjima sohasini interfaol usullarda yosh tarjimonlar ongiga singdirish.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz mazmuni 60 bet, kompyuter yozuvida bayon qilingan bo‘lib, kirish, uch bob, har bir bob uchun alohida xulosalar, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning birinchi bobi masalaning nazariy asoslarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, ikkita paragrafda o‘qitishning maxsus qonuniyatlari va innovatsion metodlarning nazariy asoslariga ba’gishlangan.

Ishning ikkinchi bobida tarjima nazariyasini o‘qitish metodlari haqida tushuncha berilgan. Shuningdek mazkur bobda ma’ruzani o‘tkazishning interaktiv usullarining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Ishning uchinchi bobida tarjima nazariyasi seminarlari, ularni o‘tkazish texnologiyasi va ularni tashkil etishda turli o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bayon qilingan.

Tadqiqot bo‘yicha qilingan ishlar. Tadqiqot bo‘yicha Samarqand davlat chet tillar institutida chop qilingan «Tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari» (10-chiqish) nomli maqolalar to‘plamida ilmiy rahbar muallifligida “Tarjima nazariyasi va amliyoti fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish» nomli maqola chop etildi.

I BOB. Ta'limda qo'llaniladigan innovatsion metodlar tasnifi

1.1. O'qitishning maxsus qonuniyatlari

Muvaffaqiyatli va samarali o'qitish uchun faqatgina uning o'zak mohiyati va ichki tuzilishini, balki uning yordamida amalga oshiriladigan chuqur qonuniyatlarni bilish muhim hisoblanadi. Mazkur qonuniyatlarni ko'zdan kechirishda avvalo, ta'lim berish shaxsni rivojlantirish va shakllantirishning vositasi sifatida keng ma'noda tushuniladigan tarbiyaning tarkibiy qismi ekanligi muhim ahamiyatga egadir.

Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, o'qitishga-umumiy tarbiya ishlari amalga oshiriladigan barcha qonuniyatlar majmui kiradi. Asosiy qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'lim va tarbiyaning insonni har tomonlama, garmonik rivojlantirishga tegishli bo'lgan muammolarni yechishga yo'naltirilishi;
- o'qitishning faoliyatli va samarali xususiyati;
- o'quvchilarning ehtiyoji - jalb etuvchi sohasining o'quv-bilish faolligi bilan birligi;
- o'quvchilarga nisbatan hurmat va talabchanlikni namoyon qilish va o'qitish jarayonida ularning shaxsiy faxrlanishlarini mustahkamlash;
- bilimlarni egallashda xursandchilikni, muvaffaqiyatlarni ta'minlash;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlarini va ijodiy xususiyatlarini ochish hamda ularning ijobiy xislatlari va sifatlariga tayanish;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- o'qitish ishlarini sifatini yaxshilashda jamoaning ta'sirini oshirish [4, 17].

Bu qonuniyatlarni amalga oshirishning xarakteri va yo'llari tarbiyaning mohiyati yoritilgan vaqtda ochib berilgan. Shu yerda ta'kidlash joizki, ushbu qonuniyatlarni mohirona amalga oshirish o'qitish jarayonining didaktik samaradorligini oshirish uchun muhim sharoit yaratadi. Masalan, agar pedagog o'quvchilarning ehtiyojli qiziqtiruvchi sohasini shakllantirmasa va rivojlantirmasa,

bu holda ularning o'quv-bilish faoligini ta'minlash dargumondir. Agarda pedagog o'quvchilarning faoligini rag'batlantirmasa, ya'ni ularga xurmat bilan muomala qilmasa, mehribonlik va odobiy talabchanlikni namoyon qilmasa, bunda u o'quvchilarning bilimlarni egallashdagi muvaffaqiyatlaridan xursandchilik hissini uyg'ota olmaydi. Ham o'qitish uchun ham tarbiya uchun umumiy hisoblangan qonuniyatlar bo'yicha ishlar shunday kechadi.

Biroq, o'qitish o'quvchilarning bilim, malaka va ijodiy xususiyatlarni egallash, hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik tomondan shakllantirishga qaratilgan maxsus pedagogik jarayon bo'lib, shubhasiz, o'zining alohida qonuniyatlariga ham egadir. Ularni ba'zida didaktik qonuniyatlar deb ataymiz.

O'qitishning alohida o'ziga xos qonuniyatlari ularga quyidagilar kiradi:

- o'qitishning ilmiylik va dunyoqarashlilikka yo'naltirilganligi;
- o'qitishning muammoliligi;
- o'qitishning ko'rgazmaliligi;
- o'quvchilarning o'qitish jarayonidagi faolligi va ongliligi;
- o'qitishning tushunarililigi;
- o'qitishning sistemaliligi va izchilligi;
- o'qitishning mustahkamligi va uning davriyligi;
- o'qitishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarining birligi [4, 18].

Bu qonuniyatlar nimalarga asoslangan va ularni qanday amalga oshirish lozim?

O'qitishning ilmiylik va dunyoqarashlilikka yo'naltirilganligi.

Bu qonuniyat shunday umumiy didaktik talablarga asoslanganki, unga ko'ra ta'lim muassasasining o'qitish mazmuni ilmiy bo'lishi va dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu qonuniyatni amalga oshirishi uchun pedagogga quyidagilar kerak:

-o'rganilayotgan materialdagi har bir qoidani chuqur va dalillar bilan ochib berish, nazariy umumlashtirishlar va xulosalarni qilishda o'quvchilar tomonidan xatoliklarga, noaniqliklarga, mexanik yodlashlariga yo'l qo'ymaslik;

-o'rganilayotgan material mazmunidagi dunyoqarashlilik va axloqiy-estetik g'oyalarni batafsil yoritib berish;

-hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy hodisalarni, ularni xalq manfaatlari va intilishlariga mos kelishini anglashlari uchun o'rganilayotgan materialning ahamiyatini ko'rsatish.

O'qitishning ko'rgazmaliligi.

Ushbu qonuniyat bir qancha omillarga asoslangandir . Ularning qaysilari muhimroq?

Birinchi. O'qitishning ko'rgazmaliligi shundan kelib chiqadiki, u o'quvchilar uchun atrof-muhitni bilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun o'qitish jarayoni narsa va hodisalar, voqealarni bevosita ko'zatish va o'rganishga asoslangan bo'lsagina muvaffaqiyatli o'tadi. Ya.A.Komenskiy: « Agar biz o'quvchilarga narsa va buyumlar haqida haqiqiy va mustahkam bilimlar singdirishni istasak, umuman hamma narsani shaxsiy ko'zatuvlar va dalillar asosida o'rgatish lozim» - deb yozadi.

Ikkinchi. Bilish jarayoni bilimlarni o'zlashtirishda turli his qilish, sezgi organlarining ishtirokini talab qiladi. Ya.A.Komenskiy, bilimlar qanchalik ko'p sezgi organlari orqali qabul qilinsa, shunchalik to'liq va mustahkam bo'ladi, deb yozgan: "O'rgimchak ing'ichka iplar ustida shuning uchun ham ajoyib tezlikda yugurib yuradiki, chunki u ipga bitta tirnog'i bilan emas, balki bir qancha tirnoqlari bilan yopishib turadi: bittasi o'zilsa, boshqasi bilan ilinib qoladi". Qaysidir ta'ssurot yoki ta'ssurotlar guruhini anglashda (bilishda) qanchalik ko'p sezgi organlarimiz ishtirok etsa, ushbu ta'ssurotlar bizning mexanik xotiramizda shunchalik mustahkam saqlanib qoladi va keyinchalik osonlik bilan esga tushiriladi.

Ya.A.Komenskiyning fikricha, ko'rgazmali o'qitish o'quvchilarning diqqatini, e'tiborini oshiradi, bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Uchinchi. O'qitishning ko'rgazmaliligi o'quvchilarning aniqdan mavhumba qarab rivojlanib boradigan tafakkurining xususiyatlariga asoslangandir.

To'rtinchi. Ko'rgazmalilik o'quvchilarning bilimlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va o'qitish jarayonini kechiqishini osonlashtiradi. Ko'pgina murakkab nazariy qoidalar ko'rgazmalardan foydalanilganda o'quvchilar uchun oson va tushunarli bo'ladi [4, 26].

Klassik didaktikaning qayd etilgan qoidalari zamonaviy o'qitishda ham o'zining ilmiy ahamiyatini saqlab qoladi. Farqi faqat shundaki, hozirgi vaqtda hatto oddiy sharoitda ham sezgi organlari orqali anglash mumkin bo'lmagan predmet, voqea va hodisalarni ko'z atishni osonlashtirishga imkon beradigan o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar tizimi ancha takomillashgan va keng rivojlangan.

O'quvchilarning o'qitish jarayonidagi faolligi va ongliligi.

Bu o'ta muhim didaktik qonuniyatdir, chunki uning mohirlik bilan amalga oshirilishiga o'qitish jarayonining muvaffaqiyati va sifatiga bog'liqdir. U nimaga asoslanagan?

O'qitishning faolligi va ongliligi avvalo ta'lim muassasasining belgilangan maqsadiga ya'ni faol va ongli jamiyat a'zolarini tayyorlashga asoslangandir. Shuning uchun, tabiiyki faollik va onglilik shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy vositasi, ya'ni o'qitish orqali shakllantirilishi zarur. Ushbu qonuniyat bilimlarni egallash jarayoni xususiyatlaridan kelib chiqadi. Avval ta'kidlanganidek, bu xususiyatning mohiyati shundan iboratki, faol, ongli o'quv-bilish faoliyatisiz, o'quvchilar o'quv materialini to'liq o'zlashtira olmaydilar va aqliy qobiliyatlarini rivojlantira olmaydilar.

Bu qonuniyatlarni amalga oshirishning yo'llari qanday?

Bu jihatdan, bilimlarni egallashga nisbatan bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'stiruvchi turli-tuman misollardan mohirona foydalanish, o'qitish jarayoniga muammoli tus (xarakter) berish juda katta ahamiyatga egadir.

Agar pedagog o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini va ongliligi uyg'ota olmasa va qo'llab-quvvatlamasa yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajara olmaydi.

O'qitishning tushunarlilikligi. Bu qonuniyat o'qitish jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini, o'ta

murakkablashtirilishiga va to'ldirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslikni ya'ni o'quv materialini o'zlashtirishni murakkablashtirilishini oldina olishni nazarda tutadi. Ammo o'qitishni tushunarli va osonlashtirish nimani bildiradi?

Birinchi. O'qitishni tushunarli va osonlashtirish degani - bu o'quvchilarning bilish imkoniyatlarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq va to'g'ri o'qitish mazmunini belgilash ya'ni o'quvchilar tomonidan har o'quv fani bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalar hamda dunyoqarashlilik, axloqiy estetik g'oyalar ko'lamini, hajmini belgilashdir.

Agarda bu hajm juda ham katta bo'lsa, o'quvchilarga har kuni darsliklarning 20-40 va undan ko'proq betlarini o'qishga, o'zlashtirishga to'g'ri kelsa, bunday o'ta yukning to'ldirib yuborilishi bilimlarni egallash jarayonini va umuman o'qitish jarayonini nafaqat qiyinlashtiradi, balki amalga oshirilmasligiga olib keladi. Buning barchasi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklarning yuqori darajada ishlab chiqilishini, keraklixa ixchamlashtirilishini va takomillashtirilib borilishini talab qiladi [4, 21].

Ikkinchi. O'qitishni tushunarli va osonlashtirish degani - bu dasturiy materialni o'rganilishining nazariy murakkabligi va chuqurligi darajasini aniqlash demakdir.

Uchinchi. O'qitishni tushunarli va osonlashtirish - bu har bir fanni o'rganishga ajratilgan o'quv soatini, vaqtini (mashg'ulotlarni) hajmini uning muhimligi va murakkabligini hisobga olgan holda belgilash hamda bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishni ta'minlash.

To'rtinchi. O'qitishni tushunarli va oson qilish uchun o'quv dasturlarini va darsliklarni takomillashtirish bilan kifoyalaniq qolmaymiz. Ushbu qonuniyatni amalga oshirish ko'proq pedagogga bog'liqdir, u o'qitish jarayonida yorqin daliliy materialdan mohirona foydalanishi, ixcham va tushunarli bayon qilishi, hayot bilan bog'lashi va o'quvchilarni nazariy umumlashtirish va xulosalar qilishga undashi lozimdir.

Beshinchi. O'qitishning tushunarligi va osonligi o'quvchilarning xotirasi va fikrlash faoliyatining individual xususiyatlari hamda ularning tayyorgarlik va rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Agarda u yoki bu o'quvchi yangi bilimlarni egallashda qiyinchiliklarga duch kelsa, bu holda daliliy materiallar tahliliga yana bir bora murojaat qilgan holda o'quvchiga individual (yakka) tartibda yordam berish lozim. Sekin fikrlaydigan o'quvchilarni bilimlarni egallashda, savollarga javob berishda shoshirish mumkin emas. Xotirasi past o'quvchilar tez-tez bilimlarni anglashga, o'tilgan materialni qayta-qayta qaytarishga muhtojdirlar.

O'qitishning sistemaliligi va izchilligi. Bu qonuniyatning o'ta katta ahamiyatini ta'kidlab, Ya.A.Komenskiy: «Faqatgina, albatta fanning mohiyatidan kelib chiqqan, aqlli tizimgina bizga bilimlarimiz ustidan to'liq hukmronlikni beradi. Uzuq-yuluq, o'zaro bog'lanmagan bilimlar bilan to'ldirilgan boshqa hamma narsa betartib joylashgan, hatto egasi ham hech narsani topa olmaydigan hujraga o'xshaydi; bilimlarsiz, faqatgina tizimdan iborat bo'sh rastaga o'xshaydi, unda joylashtirilgan qutilarning yozuvi bor, lekin qutilarning o'zi bo'm - bo'shdir» [32, 47] - deb yozadi.

O'qitishning mustahkamligi va uning davriyligi. Bu qonuniyat o'qitishning shunday xususiyatlarini aks ettiradiki, unga ko'ra bilimlar, malaka va ko'nikmalarni, dunyoqarashlilik va axloqiy-estetik g'oyalarni egallash, bir tomondan, batafsil anglanganda, boshqa tomondan esa yaxshi o'zlashtirilgan va xotirada uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan vaqtdagina o'zlashtirilgan hisoblanadi. O'qitishning mustahkamligini qanday ta'minlash mumkin?

Bu vazifani yechish, avvalo, o'quvchilardan o'qitish jarayonida o'quv-bilish faoliyatining to'liq siklini amalga oshirishni talab qiladi: o'rganilayotgan materialni birlamchi qabul qilish va anglash, keyinchalik uni chuqurroq anglash va tushunish, uni eslab qolish maqsadida belgilangan ishlarni (vazifalarni) bajarish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda bilimlarni qaytarish va sistemalashtirish.

Chuqur anglash va esda saqlab qolishning o'zaro bog'liqligini Ya.A.Komenskiy ko'rsatib o'tgan. U: «Idrok bilan anglangan narsani yodlashga

majburlash shart emas» [32, 49] - deb yozgan edi. Shu bilan birga u «bugun kechagini mustahkamlashi va ertangiga yo'l ochishi» o'ta muhim deb hisoblar edi.

O'rganilayotgan materialning anglanganligi va mustahkamligi shunda ta'minlanadiki, qachonki, o'zlashtirish bo'lib, joy-joyiga joylanuvchi xarakterga ega bo'lsa. Bu o'quvchilarni o'tilgan materialni qayta-qayta o'rganishga murojaat qilish ya'ni uni takrorlash zaruratini keltirib chiqaradi. Takrorlash faqat shundagina to'g'ri (ratsional) bo'ladiki, deb o'rgatadi Ya.A.Komenskiy: "Qachonki u yoddan chiqqanlarni tiklash uchun emas, balki yoddan chiqishni oldini olish uchun xizmat qilsa, xotira tabiatini yaxshi tushunuvchi tarbiyachi takrorlashga buzilgan binoni to'zlatish uchun emas, balki binoni mustahkamlash, uning keyingi qavatini tiklash uchun murojaat qiladi" [32, 53].

Bilimlarni mustahkamlash o'zlashtirilishida o'quvchilar bilimlarini muntazam nazorat qilish va bahoning ahamiyati kattadir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar o'quvchilarning bilimlarini muntazam ravishda nazorat qilinmasa, u holda o'qishda o'quvchi faoliyati susayadi, o'quv materialini o'zlashtirish pasayib ketadi.

O'qitishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarining birligi.

Berilgan ushbu qonuniyat quyidagi ikkita omillarga asoslanadi: birinchidan, o'qitishning vazifalari, eng muhimlari quyidagilardan iborat: o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimini, amaliy malaka va ko'nikmalarining egallanishi (ta'lim), xotira va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi (aqliy rivojlanish), ilmiy dunyoqarashlilik va axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirish (tarbiya); ikkinchidan, ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tomonlari yaxlit birlikda amalga oshiriladigan o'quv materialining xususiyatlariga asoslanadi. Buning barchasi o'qitishning ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining yaxlitlikda birlikda amalga oshirilishini talab qiladi. Berilgan muammoni yechish bir qancha aspektlarni o'z ichiga oladi.

Nihoyat, ushbu muammoning amalga oshirilishi nazariyaning amaliyot bilan, o'qitishning ijtimoiy foydali faoliyat hamda ishlab chiqaruvchi mehnati bilan

yaqindan aloqasini talab qiladi. Bu narsa bilimlarni boyitishga, qarashlari, fikr va mulohazalarining shakllanishiga, Vatanga faol xizmat qilishga intilishni ishlab chiqadi, iroda va xarakterlarini chiniqtirishga yordam beradi.

O'qitishning tamoyillari. Didaktika o'qitishning hodisalari va omillari orasidagi zarur aloqalarni aks ettiruvchi haqiqiy qonunlarni yoritib berishga harakat qiladi.

Bu qonunlar pedagogga didaktik jarayonni haqiqiy rivojlanishining umumiy tasvirini tushunishiga imkon beradi. Ammo, ular amaliy faoliyatlar bo'yicha bevosita ko'rsatmalarni o'z ichiga olmaydi, balki, uning texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'qitishni amalga oshirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar tamoyillar va qoidalarda o'z aksini topgan. Bu tamoyillar va qoidalar didaktik tamoyillar va qoidalar deyiladi. Didaktik tamoyillarni yaqindan ko'rib chiqamiz.

Didaktik tamoyillar - bu asosiy qoidalar majmui bo'lib, ta'limning umumiy maqsadi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, o'qitishning mazmunini, o'quv faoliyatini tashkil qilish shakllarini va o'qitish jarayoni uslubiyotlarini aniqlashdan iboratdir. O'qitish tamoyillarida uning aniq tarixiy ko'rinishida olingan, o'qitishning me'yoriy asoslari o'z aksini topgan [32, 41].

O'qitish tamoyillari organik birlikda namoyon bo'lib, ularning tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tizim sifatida taqdim etilib, didaktik jarayonning ma'lum bir konsepsiyasini hosil qiladi.

Agarda ko'rib chiqilgan o'qitish qonuniyatlarini ilmiy jihatdan yetarlicha asoslangan deb hisoblansa, unda tarbiyaning mohiyati va qonuniyatlari bobida qayd qilinganidek, ular o'qitish jarayonini amaliy tashkil qilishga nisbatan qo'yilgan asosiy talablar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. O'qitishga nisbatan qo'yilgan bu talablar pedagogikada didaktik tamoyillar deb nomlanadi. Ulardan eng muhimlariga quyidagilar kiradi:

- o'qitish ilmiy bo'lishi va dunyoqarashlilikka yo'naltirilishi kerak;
- o'qitish ko'rgazmali bo'lishi kerak;
- o'qitish faol va ongli (anglangan) bo'lishi lozim;

- o'qitish tushunarli oson bo'lishi lozim;
- o'qitish sistemali va izchil bo'lishi kerak;
- o'qitish mustahkam bo'lishi kerak;
- nazariya bilan amaliyot o'rtasida aloqa, bog'liqlik bo'lishi kerak.

Ushbu tamoyillar didaktik tamoyillar tizimini hosil qiladilar.

Ilmiylik tamoyili. Ma'lum bo'lishicha, o'qitishning ilmiylik tamoyili o'quvchilarga o'zlashtirishlari uchun o'qitishning har qadamida mustahkam ilmiy bilimlarni taklif qilish, bunda o'rganilayotgan fanning xarakteriga yaqin bo'lgan o'qitish uslubiyotlarini qo'llashni talab qiladi. Ilmiylik tamoyili asosida qonuniy asoslar rolini o'ynovchi bir qancha qoidalar yotadi: dunyoni bilish mumkin, amaliyotda tekshirilgan insoniy bilimlar dunyo rivojlanishining haqiqiy tasvirini beradi; ilm inson hayotida juda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ham maktab ta'limi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, o'sib kelayotgan avlodni obyektiv haqiqat haqidagi bilimlar tizimi bilan qurollantirishga qaratilgandir; o'qitishning ilmiyligi, avvalo, uning shakllanish tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda, maktab ta'limining mazmunini ta'minlaydi; o'qitishning ilmiyligi o'qituvchilar tomonidan belgilangan o'qitish mazmunini amalga oshirishiga bog'liq; o'qitishning ilmiyligi, egallangan bilimlarning haqiqiyliigi o'quv reja va dasturlarining ijtimoiy va ilmiy-texnika yutuqlari darajasiga mosligi, egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashga va fanlararo aloqalarga bog'liqdir.

O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili. Bu qadimdan qo'llaniladigan, o'qitishning juda mashhur va tushunarli tamoyillaridan biridir. Berilgan tamoyilning qonuniy asosi nisbatan yaqinda olingan. Uning asosini qat'iy qayd etilgan quyidagi ilmiy qonuniyatlar yotadi: Insonning sezish organlari tashqi ta'sirlarni turlicha his qilishga qodir. Ko'pgina odamlar ko'proq ko'rish organlari orqali his qilishga qodirdirlar, reseptorlardan markaziy nerv sistemasigacha aloqa kanalini o'tish qobiliyati turlichadir: optik aloqa kanali-1,6 10 bit.sek.: eshitish 0,32 10 bit.sek.: ta'm bilish-0,13 10 bit.sek. Bu shuni ko'rsatadiki, ko'rish organlari orqali (optik kanal orqali) bosh miyaga yetkaziladigan axborotlar qayta

kodlashni talab qilmaydi, u inson xotirasida tez, oson va mustahkam joylashib qoladi.

Faollik va onglik tamoyillari. Berilgan tamoyil asosida fan tomondan belgilangan quyidagi qonun-qoidalar yotadi: insoniy ta'limning asl mohiyatini shaxsiy aqliy faoliyatda muntazam yo'l bilan egallanadigan chuqur va mustaqil o'zlashtirilgan bilimlar tashkil qiladi; o'quvchilar tomonidan bilimlarning ongli ravishda o'zlashtirilishi bir qator shart-sharoitlarga va omillarga bog'liqdir: o'qitishning sababalari, o'quvchilarning ongli faolligi darajasi va xarakteri, ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish va o'quvchilar ongli faoliyatlarini boshqarish, pedagog tomonidan o'quvchilarning shaxsiy ongli (bilishga qaratilgan) faolligi o'qitishning muhim omili hisoblanadi va o'quv materialini o'zlashtirish tezligiga, chuqurligiga va mustahkamligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

O'qitishning tushunarlik tamoyili. Bir tomondan o'qitishning ko'p asrlar davomida ishlab chiqilgan amaliyotidan va ikkinchi tomondan, o'quvchilarning yoshiga ko'ra rivojlanishi, didaktik jarayonni o'quvchilarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tashkil qilinishi va amalga oshirilishi kabi talablardan kelib chiqadi. Tushunarlik tamoyili asosida tezaurus qonuni yotadi: insonning tezaurusiga mos bo'lgan narsagina unga tushunarlidir.

O'qitishning sistemalilik va izchillik tamoyili. Ushbu tamoyil qonuniy asoslar rolini o'ynovchi quyidagi ilmiy qoidalarga asoslanadi: inson ongida o'zaro bog'liq tushunchalar tizimini namoyon qiluvchi tashqi dunyoning aniq tasviri aks etgandagina, haqiqiy bilimlarga ega bo'lgan bo'ladi; ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishning universal vositasi va asosiy usuli bo'lib o'qitish xizmat qiladi; ilmiy bilimlar tizimi o'quv materialining ichki mantiqi va o'quvchilarni bilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan ma'lum izchillikda vujudga keladi; alohida qadamlardan tashkil topgan o'qitish jarayoni qanchalik muvaffaqiyatli o'tsa va qanchalik ko'p natijalarga erishilsa, shunchalik unda tanaffuzlar, izchillikning buzilishlari hamda boshqarilmaydigan daqiqalar kam bo'ladi; ko'nikmalar sistemali ravishda mashq qilinmasa, ular yo'qoladi; agar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatilmasa, bunda ular fikrlash faoliyatida

ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar; agar o'qitishda tizim va izchillikka rioya qilinmasa, o'quvchilarning rivojlanish jarayoni sekinlashadi.

Mustahkamlik tamoyili. Berilgan tamoyil bilimlarni mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlash bo'yicha olimlarning nazariy izlanishlari va pedagoglarning ko'pgina avlodlari tajribalariga yakun yasaydi. Unda quyidagi empirik va nazariy qonuniyatlar qayd etilgan:

Ta'limning mazmunini o'zlashtirish bilan o'quvchilarning bilish kuchlarini rivojlanishi - o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq ikki tomonidir ; o'quvchilar tomonidan o'quv materialini mustahkam o'zlashtirilishi faqatgina o'quv materialining mazmuni va tuzilishi kabi omillargagina bog'liq emas, balki, o'quvchilarning pedagogga, o'qitishga va o'quv materialiga nisbatan bo'lgan subyektiv munosabatlariga ham bog'liqdir; o'quvchilarning bilimlarni mustahkam o'zlashtirishi o'qitishni tashkil etish, turli xil o'qitish turlari va uslubiyotlarini qo'llash kabilarga asoslanadi, shu bilan birga o'qitish vaqtiga ham bog'liq bo'ladi; o'quvchilarning xotirasi tanlab olish xarakteriga ega: u yoki bu o'quv materiali o'quvchilar uchun qanchalik qiziqarli va muhim bo'lsa, ushbu material shunchalik mustahkam o'zlashtiriladi va uzoq vaqtgacha yodda saqlanadi.

1.2. Innovatsion metodlarning nazariy asoslari

Mazkur olib borilayotgan islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchli innovatsion pedagogik texnologiyani amaliyotda qo'llashdan iborat.

Bugungi davr ta'lim rivoji va taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani ishlab chiqdi. «Innovatsion pedagogika» atamasini va unga bog'liq bo'lgan izlanishlar G'arbiy Yevropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi.

Ta'lim jarayonida innovatsion faoliyat va u haqdagi tushunchalar dastlab N.V.Kuzmina, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, F.N.Gonobolin, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov kabi olimlar ishlarida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda ta'lim berish jarayonida innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan ochib berilgan.

Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotchi olimlarning izdoshlari sifatida A.Xeyvlok, N.Gross, X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, R.Karlson, M.Mayez, D.Chen, R.Edem kabi olimlar ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlar yagilanishni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun muhim bo‘lgan masalalari muhokama qilingan.

Ta’lim jarayoniga qolaversa o‘qitish usullariga yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik tadqiqotchi, olim, E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu olim ta’limga yangilik kiritish jarayoni ishtirokchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini tadqiq etadi.

Oliy ta’lim muassasalari professor - o‘qituvchilarining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining muhim muammolaridan biri sanaladi.

Innovatsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi (inglizcha innovation) – yangilanish, yangilik kiritish, yangilik degan ma’nolarni anglatadi.

A.I.Prigojin tadqiqotlari davomida innovatsiya so‘zi zamirida muayyan ijtimoiy tashkilot, insoniyat, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg’un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlar mavjud deb ta’kidlaydi. Bu o‘z navbatida innovator faoliyati namunasi hisoblanadi. Пассов Е.И., Нелюбин Л.Л., Коменский Я.А, Вейхман Г.А., Беспалько В. П., Азизхўжаева Н. Н. va boshqa bir qator tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini funksional va yo‘nalishlariga ko‘ra ikkiga ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’siri mikrosathi.

Mazkur mulohazali yondashuvning birinchi turida, hayotga joriy etilgan bir qator yangi g‘oyalar yoritiladi.

Aytib o‘tilgan yondashuvning ikkinchi turida, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashi xususida fikr bildiriladi.

Pedagogikaga mansub adabiyotlarda innovatsiya jarayonining sxemasi tasvirlanadi. Bu sxema o‘z navbatida quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Innovatsion g'oya tug'ilishi yoki yangilik tushunchasini yaratish, mazkur holat kashfiyot bosqichi deb ataladi.

2. Ixtiro qilish, aniqroq qilib aytganda yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, to'g'ri foydalana olish bosqichi.

4. Yaratilgan yangilikni targ'ib etish, uni keng tarqalishini ta'minlash bosqichi.

5. Ma'lum bir sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Mazkur bosqichda yaratilgan yangilik o'zining yangiligini xususiyatini yo'qotadi, uning mukammal samara beradigan muqobil shakli paydo bo'ladi.

6. Taqdim etilayotgan yangi muqobillik asosida, eskini yangi bilan almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

7. Yevropalik olim V.A.Slastenin yangilik yartish va kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish, deb biladi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) yangi jarayonlarning ikki muhim jihatiga ko'ra tasniflaydilar.

Birinchi turga, yangilik kiritishning murakkab bo'lmagan oddiy jarayonlari kiritiladi. Mazkur holat ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga ta'luqlidir.

Ikkinchi tur taqdim etilayotgan yangilikni keng miqyosda ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ma'lum bir sohada yangilik kirtish ham ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro bog'liqligini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada bugungi kunda «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi.

Ilmiy va tadqiqot yo'nalishlarida yangilik va innovatsiya tushunchalari bir biridan farq qiladi.

Yangilik - bu vosita: yangi usul, metodika, texnologiya va boshqalar.

«Innovatsiya» - bu ta'lim: ma'lum maqsadga ega bo'lgan bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

Mazkur olim pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasini uch blokka ajratadi:

Birinchi blok - pedagogika sohadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogika sohasidagi mutloq yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, uni o'zlashtirish, rivojlantirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki. Pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari ham e'tiborga molikdir. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi-motiv-maqсад-vazifa-mazmun-shakl-metodlar metodika komponentlari yig'indisi;
- subyektiv tuzilma - innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv(va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlikka asoslangan hayotiy davriylik tuzilmasi-yangilikning paydo bo'lishi-ildam-o'sish-yetuklik-o'zlashtirish-diffuziya (singib ketish, tarqalish) – zamonaviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish.
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni - tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovasiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;
- nihoyat amalga oshishi qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;
- qoliplashtirish (streotiplashtirish) qonuni;

Bugungi kunda dars o'tish jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini dars vaqtida qo'llashga bo'lgan ishtiyoq, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, bu holatning muhim sabablaridan biri, shu vaqtgacha qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy ta'lim usulida o'quvchi-talabalarni faqat aniq tuzilishga ega tayyor shakldagi bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, analiz va sintez qilishlariga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari qabul qilishga o'rgatadi. Shu sababli oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida yuqori malakali kasb-hunar egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning roli va o'rni juda kattadir. Pedagogikaga oid tajriba, bilim va interaktiv usullar o'quvchi-talabalarni bilimli, chuqur bilim va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba munosabati va faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, mazkur jarayonni amalga oshirishda asosan innovatsion metodlardan to'liq va samarali foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib shakllangan holda fikrlash deb ataladi, ya'ni pedagogik ta'sir o'tkazish usullari bo'lib, ta'lim-tarbiya mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular faqatgina pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat olib borishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ta'lim oluvchilar dars davomida e'tiborsiz bo'lmaslikka, erkin fikrlay olish, ijodiy yondasha olish va izlanishga majbur etish;
- o'quvchi - talabalarni ta'lim jarayonida darsga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligini ta'minlash;
- o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- O'qituvchi va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi.

Innovatsion va pedagogik texnologiyalar muammolari, masalalarini o'rganayotgan o'qituvchi professorlar, amaliyotchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, pedagogik texnologiya – bu faqatgina axborot texnologiyasi bilan bog'liq shuningdek o'qitish jarayonida qo'llanishi lozim bo'lgan Axborot kompyuter texnologiyalari, masofaviy o'qish, yoki har xil texnikalardan foydalanish deb ataladi. Pedagogik asosi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalar muhim rol o'ynaydi, ya'ni dars jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi professor-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etilgan hamkorlik faoliyatini rivojlantira olsa, har ikkalasi tomon ham kutilgan ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar erkin fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, analiz va sintez qila olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'z-o'ziga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o'qitish jarayonining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, haroitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, mavjud moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni, AKT vositalarini, eng asosiysi, o'quvchi-talabalarning

imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olish qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak.

Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metod va usullarni bilish kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat va nazariyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

Shu jihatdan ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlari bo'yicha ko'zda tutilgan nazariy ta'lim va nazariy tarbiyani takomillashtirish, uni o'quvchilar ongiga singdirib borib, nazariy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir.

Nazariy tarbiyaning bosh maqsadi – yoshlarda nazariy savodxonlikni, nazariy ongni, nazariy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq, nazariy bilimlar tizimini, huningdek, nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, o'rganuvchining nazariy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir.

O'quvchi-talabalar bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim jarayonida nazariy bilim asoslarini o'rganish mobaynida ularning tafakkurlari ham shakllana boradi. Ular quyidagi bilimlar majmui bo'lib xizmat qiladi: shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, aniq reja va dasturlar tuzib, o'ziga xos uslub va metodlar asosida amalga oshirishda; shaxsning mustaqil faoliyatida samarali o'rin tutadigan aniq nazariy tushunchalarni; iqtisodning siyosat va bozor munosabatlari bilan bog'liq qonuniyat asoslari va ulardan amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarini; mustaqil faoliyat ko'rsatishda zarur bo'ladigan barcha nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtirishni; hayotda qaysi sohani tanlashidan qat'iynazar, ehtiyoj darajasida nazariy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; nazariy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlaridan biri, deb qarashni; nazariy bilim asosidan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat nazariy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy-nazariy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifat va madaniyat hamda nazariy sohalarga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar, nazariy bilimlar doirasiga ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida nazariy yo'nalishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

- pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada to'g'ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;

- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l - yo'rig'ini ishlab chiqish.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-nazariy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Nazariy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilayapti. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Nazariy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

I BOB bo'yicha xulosa

Ushbu mavzudagi muammoning amalga oshirilishi nazariyaning amaliyot bilan, o'qitishning ijtimoiy foydali faoliyat hamda ishlab chiqaruvchi mehnati bilan yaqindan aloqasini talab qiladi. Bu narsa bilimlarni boyitishga, qarashlari, fikr va mulohazalarining shakllanishiga, Vatanga faol xizmat qilishga intilishni ishlab chiqadi, iroda va xarakterlarini chiniqtirishga yordam beradi. Ko'rib o'tilgan tamoyillar esa falsafiy, pedagogik va psixologik qoidalarga tayangan holda, hayot bilan bog'langan bo'lsa, amaliyotga tadbiq etilsa, atrofdagi voqea-hodisalarni va jarayonlarni o'zgartirishda qo'llanilsa, shunchalik o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishiladi.

Nazariya bilan amaliyot bog'liqligi tamoyili. Ushbu tamoyilning asosini klassik falsafa va hozirgi zamon genoseologiyasining markaziy qoidalari tashkil qiladi, unga ko'ra, hayot va amaliyot nuqtai-nazari bilishning birinchi va asosiy nuqtai-nazaridir. Ko'rib chiqiladigan tamoyil ko'pgina falsafiy, pedagogik va psixologik qoidalarga tayanadi: o'qitishning samaradorligi va sifati amaliyot orqali tekshiriladi, tasdiqlanadi va yo'naltiriladi; amaliyot - haqiqat mezoni, bilish faoliyatining manbai va o'qitish natijalarini tadbiq etish sohasidir; to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya hayot va amaliyotning o'zidan kelib chiqadi, ular bilan uzluksiz bog'liqdir, o'sib kelayotgan avlodni o'zgaruvchan faol faoliyatga tayyorlaydi; shaxsni shakllantirish samaradorligi uni mehnat faoliyatiga jalb qilishga bog'liq bo'lib, mehnatning mazmuni, turlari, shakllari va yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi; o'qitishning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi samaradorligi ta'limning mazmuni, o'quv-bilish jarayonini tashkil qilish, qo'llaniladigan o'qitish shakllari va uslubiyatlari, mehnat va politexnik tayyorgarlikka ajratilgan vaqtga hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liqdir; o'quvchilarning nazariya bilan amaliyotni bog'liqlikda amalga oshirishi mumkin bo'lgan mehnat va ishlab chiqarish tizimi qanchalik takomillashgan bo'lsa, shunchalik tayyorgarlik sifati yuqori bo'ladi; ishlab chiqarish faoliyati va o'quvchilarni kasbga yo'naltirilganlik ishlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga moslashish shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi; o'quv mashg'ulotlarida politexnizm darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilimlari shunchalik foydali va amaliy bo'ladi; o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar qanchalik asosiy vaqtlarda hayot bilan bog'langan bo'lsa, amaliyotga tadbiq etilsa, atrofdagi voqea-hodisalarni, jarayonlarni o'zgartirishda qo'llanilsa, shunchalik o'qitishning ongli va unga nisbatan qiziqishlar yuqori darajada bo'ladi.

Hozirgi zamon didaktikasida o'qitish tamoyillari tarixiy aniq va eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarni aks ettiradi degan qoida mavjuddir. Ijtimoiy taraqqiyot va ilmiy yutuqlar ta'siri ostida o'qitishning yangi qonuniyatlarini vujudga kelishi, pedagoglar ish tajribasining oshishi sari qonuniyatlar ko'rinishi o'zgarimoqda va

takomillashib bormoqda. Hozirgi zamon tamoyillari o'qitish jarayonining barcha tarkibiy qismlariga ya'ni mantiqqa, maqsad va vazifalarga, o'quv mazmunining shakllanishiga, ta'lim shakli va uslubiyotlarining tanlanishiga, rag'batlantirish, rejalashtirish va erishilgan o'quv natijalarini tahlil qilishga nisbatan talablarni asoslab beradi.

Umum nazariy fanlarning o'qitilish darajasi va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

II BOB. Tarjima nazariyasini noan'anaviy ma'ruza asosida o'qitish

2.1. Tarjima nazariyasini o'qitish metodlari haqida tushuncha

Qanday o'qitish kerak degan an'anaviy didaktik so'rovga javobni qidirish bizni o'qitish usullari kategoriyasiga olib chiqadi. Usullarsiz maqsadga erishish mo'ljallangan mazmuni amalga oshirish, o'qitishni bilim olish faoliyati bilan to'ldirish mumkin emas. Usul-o'quv jarayonining o'zagi, loyihalashtirilgan maqsad va yakuniy natija o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir.

O'qitish usuli tushunchasi ancha murakkabdir mana shuning uchun ham pedagogikada uning aniqroq talqiniga nisbatan mulohaza to'xtamayapti. Ammo, unga ayrim didaktlarni beruvchi har xil ta'riflarga qaramasdan, qandaydir umumiylikni, ularning nuqtai-nazarlarini yaqinlashuvini ta'kidlash mumkin. Ko'pgina mualliflar o'qitish usulini o'quvchilarning o'quv - idrok etish faoliyatini tashkil qilish usuli deb hisoblanishiga moyillar. Bu qoidani boshlang'ich sifatida olib, ushbu tushunchani batafsilroq ko'rib chiqishga va uning ilmiy ta'rifiga yaqinlashishga harakat qilamiz.

Uslub(metod) so'zi yaponchadan tarjimada tadqiqot qilish, usul, maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uni ilmiy kategoriya sifatida talqin qilinishida ko'rinadi.

Falsafiy lug'atda: "usul - eng umumiy ma'noda-maqsadga erishish yo'li, belgilangan darajada tartibga solingan faoliyat" deb takidlanadi. Chamasi, o'qitish jarayonida usul pedagog va o'quvchilarning belgilangan o'quv-tarbiyaviy vazifalarni bajarish bo'yicha o'zaro bog'liq faoliyatlarining tartibga solingan usuli bo'ladi. O'qitish usulining ta'rifi ko'proq biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan tadqiqot qilish usulining difensiyasini takrorlaydi.

O'qitish usuli - bu pedagog va o'quvchilarning o'qitishning berilgan maqsadiga erishishga qaratilgan, tartibga solingan faoliyatidir. O'qitish usullari (didaktik usullar) ostida ko'pincha maqsadlarga erishish, ta'lim vazifalarini

ychish yo'llari, usullari majmuasi tushuniladi. Pedagogik adabiyotlarda ba'zida usul tushunchasini faqat pedagogning faoliyati yoki o'quvchilarning faoliyatiga kiritadilar. Birinchi holda dars berish usullari haqida gapirish o'rinlidir. Ikkinchisida esa o'qish usullari haqida. Agar gap pedagog va o'quvchilarning hamkorligidagi ishi haqida ketsa, bu yerda, shubhasiz o'qitish usullari namoyon bo'ladilar.

O'qitish usuli - murakkab, ko'p o'lchamli, ko'p sifatli ta'limdir. Agar biz uning hududiy modelini ko'ra olganimizda edi, biz qirralarining ko'pligi bilan yaltirab turuvchi va o'z rangini doimo o'zgartirib turuvchi jilvador kristallni ko'rgan bo'lardik. O'qitish usulida o'qitishning obyektiv qonunlari, maqsadlari mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Usul aloqasining dialektikasi didaktikaning boshqa kategoriyalari bilan o'zaro teskari aloqada: o'qitilishning maqsadlari, mazmuni, shakllaridan xosil bo'lgan holda, usullar shuning bilan bir vaqtda bu kategoriyalarni vujudga kelishi va rivojlanishiga teskari va eng kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ishning maqsadlari, na mazmuni, na shakllari ularni amaliy bajarilishi imkoniyatlarini hisobga olmasdan kiritilishi mumkin emas, usullar hududi shunday imkoniyatni ta'minlaydilar. Ular didaktik tizimning rivojlanish sur'atini beradilar – o'qitish qo'llanilayotgan usullar ilgari qanchalik tez harakatlanishga imkon bersalar, shunchalik tez ilgarilaydilar.

O'qitish usullari tarkibida hammadan avval obyektiv va subyektiv qismlar ajratiladi. Usulning obyektiv qismi har qanday usulda har xil pedagoglar tomonidan foydalanishidan qat'iynazar albatta mavjud bo'luvchi doimiy, mustahkam qoidalar bilan asoslanadi. Unda barcha didaktik qoidalar, talablar uchun umumiy bo'lgan qonunlar va qonuniyatlar, tamoyillar va qoidalar, hamda o'qitish faoliyatining maqsadlari, mazmuni, shakllarining doimiy tarkibiy qismlari aks ettiriladi. Usulning subyektiv qismi pedagogning shakli, o'quvchilarning xususiyatlari, aniq sharoitlar bilan asoslanadi.

O'qitish usullarining vazifalari pedagogning o'quvchilar bilan o'quv-tarbiyaviy o'zaro hamkorligini ta'minlaydilar. Ularning mohiyati va o'ziga xosligi quyidagilardan iborat. O'qitish usullarining to'g'ridan to'g'ri vazifasi bolalarga

bilimlarni berish va uni o'zlashtirishni tashkil qilish, ularning dunyoqarashlarini shakllantirishdan iboratdir. Usullar bilimlar asosida o'quvchilarda ko'nikmalarni rivojlanishini, ular shaxsning nerv tizimida nervli-ruhiy yangiliklar sifatida mustaxkamlanishini ta'minlaydilar. O'qitish usullarining bunday to'g'ridan-to'g'ri vazifasi shaxsda insoniy kuchlar, aqliy qobiliyatlar, iqtidor, tovush, ko'rish, his qilish, eshitish, jismoniy kuchlar, sensorli, tuyg'uli, ruhiy-extiyojli, irodali sohalarni rivojlantirishni ta'minlashdan iboratdir. Bu ikki vazifani birgalikda amalga oshirish bolaning ta'lim olganligi, g'oyaviy ma'naviy tarbiyasi va nervli-ruhiy rivojlanishni ta'minlaydi. O'qitishning o'rtalashtirilgan vazifalari o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat madaniyatining nishonalari va asoslari uzluksiz ta'limni amalga oshirish, ularda mustaqil ta'limga, ilmiy-texnik inqilob sharoitida ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga harakatni rivojlanishi uchun poydevorni ishlab chiqishdan iboratdir. O'qitish usullarining tarbiyaviy vazifasi bolalarda idrok etish ijodiy faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgandir.

O'qitish usullarining tasnifi haqidagi masala murakkab bo'lmagan va munozarani kelib chiqarmaydigandir. Didaktik tadqiqodlar shuni ko'rsatadilarki, o'qitish usullarining nomenklaturasi (nomlari) va tasnifi ularni ishlab chiqishda qanday yondashish tanlab olinishiga ko'ra katta turli-tumanligi bilan ta'riflanadilar. Ulardan eng muhimlarini ko'rsatamiz. Ba'zi bir didaktlar (Ye.V.Perovskiy, Ye.Ya.Golakt, D.D.Lordniladze va boshqalar) o'qitish usullarini tasniflashda o'quvchilar bilimlarini oluvchi manbalar hisobga olishlar kerak deb hisoblaydilar. Mana shuning asosida ular usullarning quyidagi uchta guruhini ajratadilar: so'zli, ko'rgazmali va amaliy. Polyak didakti Ch. Ko'pichevich ham shunday nuqtai-nazarni qo'llab quvatlaydi va haqiqatdan ham so'z, ko'rgazmali qo'llanmalar va amaliy ishlar o'quv jarayonida keng foydalaniladi.

I. Ya. Lorner va M.N. Skotnik o'qitish usullarini o'quvchilarning o'rganilayotgan materialini egallash bo'yicha o'quv - idrok etish faoliyatining xarakteridan kelib chiqqan holda ishlab chiqqanlar. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi usullarni ajratadilar:

Tushuntiruvchi - namoyish qilinuvchi yoki axboratli resensiv (resensiya-idrok etish): ma'ruza, tushuntirish, darslik bilan ishlash, kurortlar, kino va diafilimlarni namoyish qilish;

Repraduktiv: bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha harakatlarni bajarish, algoritm bo'yicha faoliyat, dasturlash;

O'rganilayotgan materialni muammoli bayon qilish;

Qisman qidirish yoki evristik usul;

Tadqiqot qilish usuli, bunda o'quvchilarga idrok etiluvchi masala beriladi, uni ular mustaqil ravishda buning uchun kerakli materiallarni tanlab olib va pedagog yordamidan foydalanib, hal qiladilar.

Yu. K. Bobinskiy o'qitish usullarining barcha turli-tumanligini uchta asosiy guruhlarga bo'ladi:

O'quv-idrok etish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish usullari;

O'quv-idrok etish faoliyatini rag'batlantirish va motivlashtirish usullari;

O'quv-idrok etish faoliyati ustidan nazorat qilish va o'zini - o'zi nazorat qilish usullari.

Bu tasniflardan har bir belgilangan asosga ega va o'qitish usullari mohiyatini har xil tomondan tushunib yetishga imkon beradi.

O'qitish usullari tizimini o'quvchilar va o'qituvchining ta'lim maqsadlariga erishish bo'yicha birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish usullarining ro'yxati sifatida belgilab, ularni alomatlari bo'yicha ikki guruhga birlashtirgan:

Birinchi guruhni dars berish va o'qishning quyidagi usullari tashkil qiladilar: ma'ruza, hikoya, tushuntirish; namoyish qilish, tasvirlash, video usul.

Ikkinchi guruhni dars berish va o'qishning quyidagi usullaridan iborat: kitob bilan ishlash, laboratoriya ishi, mashq.

„Ma'ruza” usulining mohiyati va o'qitish jarayonida o'llanilish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

2.2. Ma'ruzani o'tkazishning interaktiv usullari

Ma'ruza - o'quv materialini bayon qilish va pedagog bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorligini monologik usuli. U ham dalillar, hodisalar o'rtasidagi vosita bo'lgan obyektiv aloqalarni bayon qilish, hamda tashxis qo'yishni ta'minlovchi qisqacha yordamchi dialogdan har xil nisbatlarda foydalanishni, pedagog tomonidan idrok etishning sifatli materialni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi haqida, teskari aloqani olishni ko'zda tutadi. Ma'ruza o'z bilan bayon qilishning boshqa usullarida quyidagilar bilan farq qiladi:

- a) qat'iyroq tuzilishi;
- b) o'quv materialini bayon qilinishining mantiqi;
- v) xabar qilinayotgan axborotlarni ko'pligi;

g) bilimlarni bayon qilishning tizimli xarakteri bilan [4, 31]. Ma'ruzaning predmeti ko'prok murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar o'rtasidagi asosan sabab-natija xarakteridagi aloqalar va bog'liqliklarni bayon qilishdan iboratdir. Hajmi bo'yicha ma'ruza butun darsni, ba'zida esa „birlashtirilgan“ mashg'ulotlarni egallaydi. Ma'ruzaviy usul asta-sekin tushuntirishlar, suhbatlardan o'sgan holda kiritiladi. Ma'ruza samaradorligining shartlari quyidagilardan iborat:

o'qituvchi tomonidan ma'ruzaning batafsil rejasini tuzilishi;

o'quvchilarga rejani xabar qilish, ularni ma'ruzaning matni maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;

rejaning barcha bandlarini mantiqiy ravon va izchil bayon qilish;

rejaning har bir bandi yoritilgandan keyin xulosalarning qisqacha umumlashtirish;

ma'ruzaning bir qismidan boshqasiga utishda mantiqiy aloqalar;

bayon qilishning muammoliligi va ta'sirchanligi;

jonli til, masalalar, solishtirishlar, yaqqol misollarni o'z vaqtida kiritish;

auditoriya bilan aloqa, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini epchillik bilan boshqarish;

ma'ruzaning eng muhim tomonlarini ko'p tomonlama ochib berish;

o'rganilayotgan qoidalarni idrok etish va tushunishni osonlashtiruvchi ko'guzmalar (namoyish qilish, ko'rsatish, video)dan foydalanish; ma'ruzalarning

seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan birlashuvi ularda alohida qoidalar har tomonlama ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda ma'ruzaning noan'anaviy shakli ham mavjud bo'lib, u odatdagi ma'ruzadan farq qiladi. Ularning tasnifini quyidagicha ifodalash mumkin:

- a) Ma'ruzalarni muammoli tarzda tashkil etish
- b) Ma'ruzalarni rejalashtirilgan xatolar bilan tashkil etish
- c) Hamkorlikdagi ma'ruzalar

Ma'ruzalarni muammoli tarzda tashkil etish. Ma'ruzaning mazkur shaklida ma'ruzachi beriyotgan ma'lumotining orasida mavzuga doir muhokamaga sabab bo'luvchi fikrlarni berib boradi. Shu orqali ma'ruzachi berishi kerak bo'lgan navbatdagi yangi ma'lumot baxsda aytib o'tiladi. Ma'ruzachi uni to'ldirib boradi. Shu orqali muammoni hal qilishga turtki vazifasini bajaradi. Tinglovchilar ma'ruzani individual tarzda mushohada qilib borishadi. Muammoli ma'ruza jarayonida, ma'ruza ayniqsa dialog shaklida olib borilsa talaba intellektual faol holatda bo'ladi shu bilan birga zerikish va e'tiborsizlikning oldi olinadi. Shu tariqa mavzuni o'zlashtirishda korporativ hamkorlik yuzaga keladi.

Ma'ruzalarni rejalashtirilgan xatolar asosida tashkil etish. Ma'ruzaning bu shaklida ma'ruzachi mavzuni e'lon qilgandan so'ng tinglovchilarga ma'ruzalarda ba'zi xatoliklar bo'lishi haqida e'lon qilinadi. Xatolar quyidagi shaklda bo'lishi mumkin: Mazmuniy xato, uslubiy xato, so'rashdagi xato va boshqalar. Shuningdek taqdim etiladigan xatolarning to'g'ri varianti ro'yxati o'qituvchida qog'oz shaklida bo'lishi va ma'ruza oxirida e'lon qilinishi lozim bo'ladi. Faqat shundagina talabalarning o'qituvchiga nisbatan ishonchi ta'minlanadi. Bu shakldagi ma'ruzani dunyoqarashi va o'zlashtirish darajasi teng bo'lgan guruhlarda olib borish tavsiya etiladi. Xatolarning miqdori 120 daqiqalik ma'ruza darsi uchun o'rtacha 7-9 ta bo'lishi lozim. Dars oxirida talabalar xatolarni sanab o'tishlari va o'qituvchi bilan birgalikda to'g'ri variantlarini tahlil qilishlari kerak bo'ladi. Buning uchun vaqt taqsimotiga ko'ra ma'ruzachi dars oxirida 10-15 daqiqani muhokamaga ajratishi lozim bo'ladi. Mazkur holat talabalarning ma'lumotni o'zlashtirib qolmasdan balki uni yodda saqlashi va qayta tahlil

qilishiga xizmat qiladi. Ba'zan talabalar rejalashtirilgandan ko'proq xatoliklarni topishi mumkin shunday holatda talabalarning mazkur tashabbusini ta'kidlagan holda ularni maqto'v bilan rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu talabalarga keyingi darslarda faol qatnashishlariga turtki vazifasini bajaradi.

Hamkorlikdagi ma'ruzalar. Bu ma'ruza shaklida ma'ruzachilar soni ikkita bo'ladi. Har ikkalasi ham bir xil mavzuda ma'ruza o'qishadi. Ma'lumotlar qarshi fikr talab qiladigan shaklda berib boriladi. Ya'ni birinchi ma'ruzachi ma'lumotni bayon qiladi. Ikkinchi ma'ruzachi uning aksini aytgan holda tinglovchilarni bahsga chorlaydi. Berilayotgan ma'lumotlar tinglovchilar tomonidan ikki ustunga ajratilgan holatda yozib boriladi. Ma'ruzaning bu shakli talabalar o'rtasida aqliy konfliktni keltirib chiqaradi. Bu shakldagi ma'ruza talabalarning psixologik tabiatni ochib berish uchun ham xizmat qiladi. Ayniqsa ma'ruzalar chet tilida bo'lsa va muhokamalar ham chet tilida olib borilsa, bu talabalarning nutqi o'sishiga va ravonlashishiga ham bevosita ko'maklashadi. Bu kabi ma'ruzalarni tashkil etishda quyidagilar talab etiladi:

- Qarama-qarshi fikrga ega bo'lgan va qaror qabul qilishning yuqori darajasi nomoyon bo'ladigan mavzu tanlash;
- Dunyoqarashi, fikrlashi va nutq so'zlash uslubi bir xil bo'lgan ma'ruzachilarni tanlash;
- Ma'ruza o'qish stenariysini tuzish (vaqt taqsimoti, mavzu qamrovini belgilash).

Muammoli ma'ruza o'quv jarayonini o'quv muammolarini hal qilish jarayoni bilimlarni mustaqil ravishda egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va bilib olish faolliklarini rivojlantirish yo'li bilan tashkil qilinishidan ajralib turadi.

II BOB bo'yicha xulosa

O'qitish usullarining vazifalari pedagogning o'quvchilar bilan o'quv-tarbiyaviy o'zaro hamkorligini ta'minlaydilar. Ularning mohiyati va o'ziga xosligi quyidagilardan iborat: O'qitish usullarining to'g'ridan to'g'ri vazifasi bolalarga bilimlarni berish va uni o'zlashtirishni tashkil qilish, ularning dunyoqarashlarini

shakillantirishdan iboratdir. Usullar bilmlar asosida o‘quvchilarda ko‘nikmalarni rivojlanishini, ular shaxsning nerv tizimida nervli-ruhiy yangiliklar sifatida mustahkamlanishini ta‘minlaydilar. O‘qitish usullarining bunday to‘g‘ridan to‘g‘ri vazifasi shaxsda insoniy kuchlar, aqliy qobiliyatlar, iqtidor, tovush, ko‘rish, his qilish, eshitish, jismoniy kuchlar, sensorli, tuyg‘uli, ruhiy-extiyojli, irodali soxalarni rivojlantirishni ta‘minlashdan iboratdir. Bu ikki vazifani birgalikda amalga oshirish bolaning ta‘lim olganligi, g‘oyaviy ma‘naviy tarbiyasi va nervli-ruxiy rivojlanishni ta‘minlaydi.

Ma‘ruza ma‘lumbir fanni qisman bo‘lsada o‘rganish uchun xizmat qiladi ammo mazkur fanning asosiy tushunchalariga to‘xtalib o‘tiladi. Tarjima nazariyasi fanlari ma‘ruzalari ham shu funsiyalrni bajaradi uni tashkil etish usullari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Muammoli ma‘ruza ma‘ruzaning faol shakillaridan biridir. Muammoli ma‘ruza o‘quv jarayonini o‘quv muammolarini hal qilish jarayoni bilmlarni mustaqil ravishda egallash, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlari va bilib olish faolliklarini rivojlantirish yo‘li bilan tashkil qilinishi bilan ajralib turadi. Muammoli ma‘ruzaning texnologiyasi alohida variantlilik bilan ajralib turmaydi, chunki o‘quvchilarning faol bilim olish faoliyatiga kirishlari bir qator bosqichlarga suyanadi, ular izchil va majmuaviy holda amalga oshirishlari kerak. Fikrlash qiyinchiligini his qilishdan iborat bo‘lgan muammoli vaziyatni yaratish muammoli ma‘ruzaning muhim bosqichi bo‘ladi. Muammoli vaziyat vujudga kelgan paytida kiritiladigan o‘quv muammosi qiyin, ammo o‘quvchilar yecha oladigan bo‘lishi kerak. Uni kiritilish va anglab olinishi bilan birinchi bosqich tugaydi. Muammoni hal qilishning ikkinchi („yopiq“) bosqichida o‘quvchi ushbu masala bo‘yicha o‘z ixtiyorida mavjud bo‘lgan bilimlarni tahlil qiladi, javob olish uchun nimalar yetishmasligini aniqlab oladi va yetishmagan axborotlarni olishga faol kirishadi. Uchinchi („ochiq“) bosqich muammoni yechish uchun zarur bilimlarni har xil usullar bilan olishga qaratilgan. Keyin muammoni yechish, olingan natijalarni verifikasiyalash (tekshirish), dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilmlar, ko‘nikmalar bir tizimga tushurish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

Ma'ruza o'qitish usuli va shaklini uzviy bog'liqligidan iboratdir. U o'quvchilarni e'tibor bilan eshitish, yordamchi vositalarni ko'z orqali kuzatish, konspekt qilishga jalb qiladi va shuning bilan bir vaqtda yaxlit, tugallangan o'quv mashg'ulotini tashkil qiladi.

Ma'ruzalarni mazkur shakllarida tashkil etish talabalarda interaktivlikni shakllantirish bilan birgalikda, ularda mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni oshiradi va motivatsiyani paydo qiladi. Ma'ruza jarayonida talabalar soni qanchalik ko'p bo'lmasin ularning har biri faollik bilan qatnashishga harakat qilishadi. O'z fikrlarini isbotlab berishga imkoniyat yaratib beradi.

III BOB. Tarjima nazariyasi seminarlarini interaktiv usulda tashkil etish

3.1. O‘qitish usullari va seminarlarni o‘tkazish texnologiyasi

O‘qitish usullari - bu o‘qituvchi va talabalarning o‘quvchilar tomonidan bilimlar va ko‘nikmalarni egallash, tarbiya va rivojlanishga qaratilgan o‘zaro bog‘langan faoliyati usullaridir. Pedagogika fani va amaliyot o‘qituvchiga o‘qitish usullari va yo‘llarining boy xazinasini taklif qiladi. O‘qituvchining ijodiy faoliyati o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga yaxshiroq erishishni ta‘minlovchi usullardan rotsional foydalanishdan iboratdir.

Usullar va yo‘llarning turli tumanligi talabalarda o‘quv - idrok etish faoliyatining o‘ziga qiziqish bildiradi, bu o‘quv mashg‘ulotlariga muammoli dars bo‘luvchi munosabatni ishlab chiqish uchun g‘oyatda muhimdir.

Keyingi o‘n yilliklarda o‘quvchilarni bilimlarini mustaqil olish, ularning idrok etish faoliyatini takomillashtirish, fikrlarni rivojlantirish, amaliy bilimlar va ko‘nikmalarni shakillantirishga undovchi o‘qitishning faol usullari keng tarqalmoqda. Muammoli - qidiruv va ijodiy qayta tiklovchi usullari xuddi ushbu masalalarni hal qilishga qaratilgan.

O‘qitishning faol usullari - bu talabalarni o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida faol fikrlash va amaliy faoliyatiga undovchi usullar hisoblanadi. Faol o‘qitish usullarning shunday usulidan foydalanishni ko‘zda tutadiki, u asosan o‘qituvchi tomonidan tayyor bilimlarni bayon qilinishi, talabalarni ularni eslab qolishlari va qayta tiklashlariga emas, balki faol idrok etish va amaliy faoliyat jarayonida talabalar tomonidan bilimlar va ko‘nikmalarni mustaqil egallashlariga qaratilgan. O‘qitishning faol usullarining xususiyatlari o‘quvchilarni faol idrok etish va amaliy faoliyatga undashdan iborat, busiz bilimlarni egallashda ilgari yurib bo‘lmaydi. O‘qitishning faol usullarini paydo bo‘lishi va rivojlanishi o‘qitish jarayonining oldida paydo bo‘lgan.

O‘quvchilarga nafaqat bilimlar berish, balki idrok etuvchi qiziqishlar va qobilyatlar, ijodiy fikrlash mustaqil aqliy mehnatning ko‘nikmalarni shakillantirish va rivojlanishini ta‘minlashdan iborat bo‘lgan yangi vazifalar bilan ifodalanadi. Yangi vazifalarni vujudga kelishi axborotlarni shiddatli rivojlanishi bilan

asoslanadi. Agar avval boshlang'ich ta'lim muassasalari va Oliy o'quv yurtlarida olingan bilimlar insonga uzoq vaqt, ba'zida esa butun mehnat faoliyati davomida xizmat qilgan bo'lsa, axboratlarni o'sishining shiddatli sur'atlari asrida esa ularni doimo yangilab turish zarur, bunga asosan mustaqil ta'lim yo'li bilan erishish mumkin, bu narsa insondan idrok etish faolligi va mustaqillikni talab etadi.

Darslar jarayonida idrok etish faolligi idrok etish jarayoniga aqliy javob qaytarish, o'quvchilarni bilimga, shaxsiy va umumiy vazifalarni bajarishga intilishlari, pedagog va bo'sh o'quvchilarni faoliyatiga qiziqishni bildiradi.

Idrok etish mustaqilligi ostida mustaqil fikrlashga harakat qilish va bilish, yangi vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymaslik qobiliyati, vazifani yechishga o'zining yondashishini topish, nafaqat o'zlashtirilayotgan o'quv axborotini, balki uni olish usullarini topish istagi, boshqalarning mulohazalariga tanqidiy yondashish shaxsiy mulohazalarining mustaqilligini tushunib yetish qabul qilingan.

O'qitishning faol usullaridan o'quv jarayonining har xil bosqichlaridir: bilimlarni birlamchi egallash, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikmalarni shakillantirishda foydalaniladi. O'qitishning faol usullarini bilimlar tizimini shakillantirish va ko'nikmalarni egallashga qaratilganligiga ko'ra taqlid qilinmaydiganlar taqlid qilinadiganlarga bo'ladilar.

Taqlid qilinmaydiganlar: muammoli ma'ruza, evristik suhbat, o'quv munozarasi, qidiruvchi laboratoriya ishi, tadqiqot qilish usuli, o'qituvchi dastur bilan mustaqil ishlash (dasturiy o'qitish), kitob bilan mustaqil ishlash.

Taqlid qilinuvchilar: aniq ishlab chiqarish vaziyatini tahlil qilish, vaziyatli ishlab chiqarish masalalarini yechish, mashqlar-yuriqnoma bo'yicha harakatlar (yo'riqnoma bo'yicha laboratoriya va amaliy ishlash), ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida shaxsiy vazifalarni bajarish.

O'qitish usullarini tanlashda dastlab o'quv materialining mazmunini tahlil qilish va faol usullardan o'quvchilarning ijojdiy fikirlashlari, ularning idrok etish qobiliyatlari, hayotiy tajribasi, haqiqiy faoliyatga moslasha olishlari eng amaliy nomayon bo'luvchi joyda foydalanish kerak.

O'qitish axbarotini rivojlantiruvchi usullariga o'quvchilar o'quv axboratini tayyor ko'rinishda yoki o'qituvchining bayon qilinishida oladigan usullari: ma'ruza, hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan mustaqil ish kiradi.

O'qitishning muammoli - qidirish usullarining ajralib turuvchi alomati o'quvchilar oldiga o'zlari mustaqil javob topishlari, ular uchun o'zlari yangi bilimlar yaratishlari, "kashf qilishlari", nazariy xulosalarni shakllantirishlari kerak bo'lgan masalalar (muammolar)ni qo'shishdan iboratdir.

Mazkur bobimizni «Pedagogik tizimda yangilik kiritishlar» va «Pedagogik tizim» tushunchasi ma'nosini izohlash bilan boshlashni joiz bilgan holda tushunchalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik jarayon ya'ni ta'lim - tarbiya jarayoni, biz ko'rib chiqqanimizdek pedagogik tizimda asosiy vazifani bajaradi. Pedagogik tizim o'z navbatida tarkibiy qismlarni birlashishini ta'minlovchi vosita vazifasini bajaradi.

Ma'lum bir holatda o'zgarishlar (yangilik ko'rsatishlar) qandaydir yo'l qo'yiladigan chegara (mustaqillik zaxirasi) dan ham ko'payib ketsa, tizim buziladi, uning o'rniga boshqa yangicha xususiyatga ega tizim vujudga keladi.

Seminarlar o'qitishning yetakchi va samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Seminarining boshqa ta'lim shakllaridan ustun tamoni pedagog o'qituvchi rahbarligi ostida material faol, mustaqil ishlab chiqishga qo'shilish imkoniyatini beradi. Seminar shakli pedagogga o'quvchilar bilan birga chuqur tahlilni amalga oshirish, turli tuman axboratlarga tekshirib chiqilgan baholarni berish, o'quvchilarni buni mustaqil amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki tarjima nazariyasi seminari u yoki bu tarjima mavzusini o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganish natijalarini muhokama qilishga bag'ishlanishi mumkin. Tarjima nazariyasini o'rganish uchun o'qituvchi tomonidan mavzuga doir adabiyot va tahlil uchun xorijiy tildagi asar uyga vazifa sifatida beriladi. Tarjima nazariyasi seminarlarida tarjima nazariyasining ma'lum bir mavzusi muammoli va bahsli muhokamasi o'tkaziladi. O'quvchilar nazariyaga doir o'z bilimlarini bayon qilishadi, bir birlariga savollar beradilar, munozaralarda ishtirok etadilar. Mazkur jarayonda O'qituvchi ham o'zning savollarini berib

boradi. Seminar yakunida o'qituvchi muhokamaning yakunini chiqaradi. O'quvchilar tomonidan keltirilgan dalillarni, yangicha yondashuvni, dars jarayonidagi ishtirokiga ko'ra talablarni baholab boradi.

Ayrim seminarlar talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligi ostida maxsus tayyorlangan bir yoki bir necha tarjima nazariyasi fani ma'ruzalarni tinglash va muhokama qilishga bag'ishlanishi mumkin. Seminar mashg'ulotlari bilimlar, ko'nikmalarni mustahkam o'zlashtirish va anglashga yordam beradi, chunki talabalardan dastlabki yo'naltirilgan mustaqil ishni va muhokamani borishida fikirlashda ilg'orlikni talab qiladi. U xotira, tafakkur, nutq, hissiyotlar kabi insoniy ichki kechinmalar jarayonlarini rivojlantiradi, faollashtiradi va eng muhimi turli tuman fikrlash usullari va operasialarini ishlatish uchun imkoniyat beradi. U mustaqillik, javobgarlik, o'z qarashlarini himoya qila olish, tasdiqlash va ishontirish kabi ahloqiy sifatlarni shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya va unda mavjud jarayonlarni ba'zi bir asosiy izohlari ustida to'xtalib o'tamiz. Pedagogik texnologiyaning ma'lum bir aniq turi loyhalashtirilgan natijaga erishishning to'liq belgilangan xususiyatlari va imkoniyatlariga ega degan qoidadan kelib chiqamiz. Bu imkoniyatlar sistemaning aniq ta'riflari tomonidan qattiq asoslangandirlar. Pedagogik texnologiyada o'tayotgan didaktik jarayonga nisbatan bu tasdiqni «saqlanish qonuni» sifatida shakllantiradi va uni «Har qanday didaktik jarayon o'quvchilarga berilgan vaqtda bilimlar, malaka va ko'nikmalar shakllantirish sifati bo'yicha to'liq asoslangan asosiy imkoniyatlarga egaligini tasdiqlovchi didaktikadagi birinchi va yagona qonun» [22, 48], - deb ataydi.

Tarjima nazariyasi va unga bog'liq boshqa darslarda Kompyuter Texnologiyalaridan foydalanishning takomillashuvining asosiy yo'llari ikki xil shaklda bo'lishi mumkin: inteksiv va ekstektiv.

Inteksiv yo'l Tarjima nazariyasi o'qitiladigan darslarda Pedagogik texnologiyadan foydalanishni ichki rezerv bazalar hisobiga rivojlanishini nazarda tutadi.

Ekstensiv shaklda qo'shimcha imkoniyatlar yangi vositalar, uskunalar, texnologiyalar, amaliy o'yinlar va loyihalar va hokozolarkni jalb qilishni nazarda tutadi. Yevropa mamlakatlarida Oliy o'quv yurtlarida pedagogik mahsulotni miqdoriy tariflarini ko'proq yangi axborot texnologiyalari, vaqtni o'quv faoliyatini har xil turlariga qaytadan taqsimlash, sinf ishini tabaqalashtirish va individuallashtirish hisobiga rivojlantirgan holda ekstersiziv yo'l bilan rivojlanadi.

Seminarlar jarayonida qo'llaniladigan umumiy va xususiy innovatsion loyihalarning katta miqdorini taklif qilinayotgan g'oyalarni pedagogika fanida ishlab chiqilganligi darajasini pasligi (ma'lum-noma'lum tamoyili bo'yicha tanlab olish), hamda pedagogik amaliyotda foydalanish (bor edi-yo'q edi tamoyili asosida tanlash) mezonni asosida analiz qilish quyidagilarni umumiy pedagogik innovatsiyalarga kiritishga imkon bergan:

1) paydo bo'lishiga ko'ra yangi bo'lamagan, ammo muhim va o'zini butunlay tugatmagan umumiy fikrlarni va pedagogik amaliyot tizimini qamrab oluvchi o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib turuvchi amaliy texnologiyani;

2) insonparvarlik pedagogikasini uning butun nazariy qoidalari va amaliy texnologiyalarining majmuasida;

3) pedagogik jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishga yondashishning yangi g'oyalarga asoslanganligi;

4) axborotlashtirishning innovatsion g'oyalari va vositalari, ommaviy kommunikatsiyalarga asoslangan texnologiyalarni;

Seminar darslarni tashkil etishda tarjima nazariyasini kuchli o'zlashtirgan o'qituvchi bo'lishning o'zi bugungi kunda yetarli emas. Seminarlar jarayonida Innovatsion go'yalar bilan ishlash bugungi kunning asosiy talabi bo'lib qoldi. Shunga ko'ra Pedagogik texnologiyalar va dars jaryonlarida innovatsion o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir: umuman pedagogik tizim; o'quv yurtlari; pedagogik nazariya; pedagog; o'quvchilar; pedagogik texnologiya; mazmun; shakllar, usullar, vositalar; boshqaruv; maqsadlar va natijalar.

Mazkur yoʻnalishlardagi oʻzgarishlarning chuqurligi boʻyicha innovatsion yangiliklarni mohiyati, sifati va mohiyati muvofiqligi haqida fikr yuritish mumkin. Bu oʻz navbatida talabalardan ham ziyraklik va faollikni talab etadi.

Innovatsiya tushunchasi zamonaviy taʼlimda pedagogik ilmiy bilimlarning yangilikka asoslangan tizimi sifatida qabul qilingan. Taʼlim va tarbiyaning kuchli va barqaror tizimini faqat amaliyot tomonidan tasdiqlangan va fan tomonidan aniqlangan qoidalarining obyektiv poydevorida rivojlantirish mumkin.

Ya. Komenskiyning tabiatnibil olish pedagogikasiga qaytishni aytamiz. Innovatsion jarayonning ikkinchi yoʻnalishi deb K. Rodjers talqinidagi PT ni insonparvarlashtirilishini tan olamiz. Ikkala yoʻnalish jahon pedagogikasi uchun yangilik emas, ammo malaka uchun katta qizikish uygʻotadi.

Innovatsiyalar (inglizcha) “innovation”-yangi kiritish, yangiliklardan-bu tizm chidagi oʻzgarishlardir . Pedagogik oʻxshatishlar va eng umumiy maʼnoda innovatsiyalar oʻquv-tarbiya jarayonining oqimi va natijalarini yaxshilovchi pedagogik tizimdagi zichlik kiritishlarni koʻzda tutadi. Ammo yangilik kiritishlar tizimini yomonlashtirishlari ham mumkin. Yangiliklarni belgilash qandaydir yangi narsa bilan almashtirish uchun ingliz soʻzi „novation” mavjud.

Innovatsiya tizimida esa uning shaxsiy resurslari (zaxiralari) hisobiga amalga oshiriladigan yangilik kiritishlari bildiriladi. Demak, tashqaridan olib kiriladigan hamma narsa innovatsiya emas [42, 63].

Pedagogikada innovatsiyalarini tushuntirish gʻoyatda ziddiyatlidir. Kasbiy pedagogikada», masalan 6 „innovatsiyalar-texnika, texnologilar, pedagogika, ilmiy tadqiqotlar sohasida yangi amaliy vositalar (yangiliklar, yangilik kiritishlar)ni yaratish, tarqatish va foydalanishning komplekt jarayoni”, - deb oʻqiymiz. Pedagogikadagi «Yangi pedagogik vositalarni» bitta qoʻlning barmoqlaridagina sanab chiqish mumkin. Hammasi oddiy emas.

Innovatsiyalar vositalarni yaratishdagina iborat boʻla olmaydi. Innovatsiyalar – bu pedagogik tizimni sifatli takomillashtirishning birligida olingan ham gʻoyalar, ham jarayonlar, ham vositalar, ham natijalardir.

Qanday muammolar hammadan ko‘proq innovatsiyalarning obyektlari bo‘ladilar?

Ba‘ribir doimiy pedagogik kamchiliklar: o‘quv-tarbiya faoliyati motivatsiyasini qanday qilib oshirish; mashg‘ulotlarda o‘rganilayotgan material hajmini qanday qilib ko‘paytirish; o‘qitish sur‘atini qanday qilib jadallashtirish; vaqtni yo‘qotilishini qanday qilib bartaraf qilish va h. k. O‘ylabroq ko‘rilgan usullarni tadqiq etish, o‘quv-tarbiya jarayonining faol shakllari, o‘qitish va tarbiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanilishi-innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishning doimiy sohalaridir. Agar innovatsion chaqiruvlarga shunday nuqtai-nazar ostida qaramasa, unda ular hech qanday muhim jihatlarga ega bo‘la olmaydilar. Ko‘pincha eski muammolarni hal qilishning yangi „resentlari“ yo‘q bo‘ladi. Kattaroq hisob bo‘yicha, biz faqat insoniy rivojlanish jarayonlari haqidagi yangi bilimlarga asoslanuvchi va pedagogik muammolarni hal qilishga ilgari foydalanilmagan nazariy yondashishlar, yuqori natija olishning aniq amaliy texnologiyalarini taklif qiladigan g‘oyalarnigina haqiqiy innovatsion deb tan olishga majburmiz. Interaktiv usullar ta‘limda innovatsiyalarga kiritadilar.

Bunday maqsadlarning biri o‘qitishning shunday qulay sharoitlarini yaratishni, ularda o‘quvchi o‘zining muvoffaqiyatligi, o‘zini aqli mustaqilligini his qiladi. Intraktiv o‘qitishning mohiyati shundan iboratki, unda o‘quv jarayoni shunday tashkil qilinadiki, amalda barcha o‘quvchilar idrok etish jarayoniga jalb qilinadilar, ular tushunish va bilganlari va o‘ylaganlari bo‘yicha reflex hosil qilish imkoniyatlariga egalar.

O‘qitishning interaktiv usullari o‘quvchilarning g‘oyatda katta ta‘lim salohiyatini faollashtirish va foydalanishga, o‘quv jarayoniga ijodiylik elementlarini kiritish va ijodiy faoliyat yurituvchi tizmlarga xos bo‘lgan energiya xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

O‘qitishning interaktiv usullarini qo‘llashda quyidagi qoidalardan foydalanish mumkin:

1- qoida: Tarjima nazariyasi darsiga barcha ishtirokchilar ya‘ni talabalar u yoki bu darajada jalb qilinishlari talab qilinadi. Shu maqsadda tarjima nazariyasi

seminariga barcha ishtirokchilarini muhokama jarayoniga kiritish imkoniyatini beruvchi texnologiyalardan foydalanish samarali yondashuv hisoblanadi.

2-qoida: Talabalarning ruhiy-hissiy tayyorgarlik darajasi haqida qayg'urish zarur. Gap bu yerda mashg'ulotlarga kelganlarning hammasi ham tarjima nazariyasi seminarining u yoki bu shakliga bevosita qo'shilishga ruhiy tayyor emasligi haqida ketadi. Ma'lum asoratga tushish, tanglik, yomon xulq o'zini ko'rsatadi. Shuni munosabati bilan yengil mashqlar, talabalarni seminarda faol ishtirok etganlari uchun doimo rag'batlantirib, maqtab turish, talabalarga o'zlarini ko'rsatishlari uchun imkoniyatlar beradi.

3- qoida: Interaktiv texnologiyasida o'quvchilar ko'p bo'lmaliklari kerak. Ishtirokchilar soni va o'qitishning sifati to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikda bo'lishi mumkin. Ichida o'ttizdan ortiq bo'lmagan odamlar ishtirok etishlari kerak. Faqat ushbu sharoitlarda kichik guruhlarda unumli ishlash mumkin. Chunki har bir kishini eshitish, har bir guruhga muammo bo'yicha so'zga chiqish imkoniyatini berish muhimdir.

4- qoida: Ish uchun xonani tayyorlashga e'tibor bilan qarash. Auditoriya shunday tayyorlanishi kerakki, unda ishtirokchilar katta va kichik guruhlarda osonlik bilan joylasha olsinlar. Boshqacha qilib aytganda o'quvchilarga jismoniy qulaylik yaratilishi kerak. Mashg'ulotda kimningdir bo'ynini „qayirib“ o'tirishi yomondir. Shuning uchun har bir o'quvchi mashg'ulotni olib boruvchiga nisbatan yarim burilishda utirishi va kichik guruhda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun, stollarni „archa“ shaklida qo'yish yaxshiroq. Agar ijodiy ish uchun zarur materiallar oldindan tayyorlansa, yaxshiroq bo'ladi.

5-qoida: Tadbirlar va regeament masalalariga e'tibor bilan qarang.

Bu haqida eng boshidan kelishib olish va uni buzmaslikka xalaqit bermaslik kerak.

6-qoida: Seminar ishtirokchilarini guruhlarga bo'linishlariga e'tibor qiling. Dasavval uni ixtiyorlik asosida ko'rish yaxshiroqdir. Keyin tasodifiy tanlov tamoyilidan foydalanish o'rinlidir.

3.2. Tarjima nazariyasi seminarlarida o‘yinlar tashkil etish

Darsni rejalashtirish jarayonida talabalar faqatgina so‘zlarni yodda qoldirib qolmasdan balki ularning individual xususiyatlarini ham yuzaga chiqarishni xohlaymiz. Darslarga talabalar o‘z qiziqishi bilan qatnashishlari uchun qanday usullardan foydalanish kerakligi haqida juda ko‘p bosh qotiramiz. Talabada tilga qiziqish darajasini tushirib yubormaslikka harakat qilamiz. Bu muammoni hal etishda interaktiv o‘yinlardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. O‘yinlardan foydalanish talabalarda yaxshi va samarali natija ko‘rsatadi.

O‘yin – maxsus tayyorlangan dars turi hisoblanib o‘qituvchidan katta emotsional va aqliy kuchni talab qiladi. O‘yinlar orqali bola tabiatini o‘rganish osonroq kechadi [42, 54].

O‘yinlar bolada ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantiradi va har qanday ishga ijodiy yondashadigan bo‘ladi. Ijod – bu yangilik yaratish demakdir. O‘yin bolalar va o‘smirlarga ijod zavqini beradi. Ijod zavqsiz hayot rangsiz bo‘lib qoladi. Ijodkor inson har doim ma’lum bir ish bilan band bo‘ladi. Insonning ijodiy qobiliyatidan uning hayotdagi mazmuni belgilanadi.

Mavzularni o‘yinlar yordamida o‘rganish uni doimo ogohlik va hushyorlikka yetaklagan holda uni doim olg‘a yurishga undaydi.

Amerikalik psixolog D.Midning takidlashicha, inson bolaligidan ichki “men”niga tayanib ish ko‘ra boshlaydi. Mazkur “men” tushunchasining ahvolini bolaning turli o‘yinlardagi ishtirokidan aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

Tibbiyot va psixologiyada “o‘yinterapiya” tushunchasi mavjud. Bu tushunchaning mohiyati shundan iboratki dunyoning hech qanday asbob - uskunasi aniq ochib bera olmaydigan inson ruhiyatini o‘yinlar orqali ko‘rish imkoniyati mavjud.

O‘yin quyidagi uslubiy vazifalarni bajaradi:

- Talaba – o‘quvchilarni muloqotga kirishish jarayoniga ruhiy tayyorlaydi.
- Muloqotning ko‘pqirali va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.
- Muloqot jarayonida to‘g‘ri so‘z qo‘llashga o‘rgatadi.

Dars jarayonida interfaol o'yinlarning roli juda muhim. Masalan darsni interfaol usulda tashkil etish birinchidan butun guruhning ishtirokini ta'minlasa, ikkinchi tomondan raqobatni keltirib chiqaradi. Raqobat maqsad sari intilishni taqozo etadi [5, 221]. Darsda turli o'yinlardan foydalanish yangi mavzuni bir necha bor takrorlash imkoni beradi va natijada yangi mavzu dars davomida to'liq o'zlashtiriladi va tushunmovchiliklarning oldi olinadi.

Shuni yodda tutish lozim bo'ladiki, darsning faqatgina 60 foizigacha qismini interfaol o'yinlar bilan o'tkazish tavsiya etiladi aks holda talabada dars topshiriqlarini bajarishga nisbatan o'yinqaroqlik va dangasalik hissi paydo bo'lishi mumkin.

M.F.Stronina «Обучающие игры на уроках английского языка» nomli kitobida til o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan o'yinlarni 5 turga ajratadi.

1. Leksikga doir o'yinlar
2. Grammatikaga oid o'yinlar
3. Fonetikaga oid o'yinlar
4. Orfografiyaga oid o'yinlar
5. Ijodiy o'yinlar [50, 32].

O'yin davomida ishtirokchilarni e'tiborini bo'lmaslik talab etiladi aks holda ishtirokchining o'yinga bo'lgan ishtiyoqi so'nishi mumkin. Bu borada M.F.Stronin quyidagilarni yozgan: «Agar odamlar suhbatdoshi tomonidan tanqid qilinishini bilishsa, ko'p hollarda davrlarda sukut saqlashni maqul ko'rishadi. Xuddi shuningdek agar talaba yoki o'quvchining chet tilidagi nutqi o'qituvchi tomonidan mutassil to'xtatib to'g'irlanib borilsa, talabada nafaqat fikrlar chalkshadi balki chet tilida so'zlashni davom ettirish istagi ham so'nadi» [50, 26].

Xatolarni talaba nutqni yakunlagandan so'ng to'g'irlash maqsadga muvofiqdir.

Audiolashtirishga asoslangan o'yinlar

Maqsad: ishtirokchilarni aytilgan fikrni bir marotaba eshitishdan oq tushinishga o'rgatish.

- Talablarga ma'lumotlar oqimidan keragini ajratib olishga o'rgatish.

- Ishtirokchilarda eshitish orqali ma'lumot qabul qilishni rivojlantirish.

Bu o'yinni hech qanday rasmlarsiz va kartochkasiz tashkil etish mumkin. Bu o'yinda o'qituvchi ma'lum bir chet tilidagi matnni ovoz chiqarib normal tempda o'qib boradi, talabalar tinglaydi. O'qituvchi o'qishni yakunlagach, talabalardan yodida qolgan so'zlarni qog'ozga yozishni vazifa qilib beradi. O'qituvchi matnni yana bir bor o'qib beradi. Talabalar eshitish davomida o'zlariga eshitayotgan so'zlardan yozib oladi. So'ng o'sha so'z va so'z birikmlaridan foydalanib eshitilgan matnni ishtirokchilar qayta yaratadi. Audiolashtirish guruhlarida qo'llanilsa ko'proq samara beradi. Chunki eshitishdan so'ng matnga doir savollar tuzishadi va guruhda o'zaro savol javob qilinadi. Savollarga ko'p va aniq javob bergan jamoa g'olib bo'ladi.

Kimning oftobi yorqinroq

Guruh sardorlari doskaga chiqadi doskada ikkita doira chizilgan bo'ladi. O'qituvchi tomonidan ingliz tilida sodda gaplar o'qiladi. O'quvchilar har bir jumlaning tarjimasini aytib borishdi kimning tarjimasini struktura va mazmunga ko'ra to'g'ri deb topilsa doiradan bir chiziq chiziladi. Har bir chiziq bir ball bilan baholanadi.

Kim topqir

O'qituvchi guruhni ikkiga ajratadi. Mavzulashtirilgan topishmoqlar aytadi.
Masalan:

1. It is a domestic animal. It likes fish. (a cat)
2. It is a wild animal. It likes bananas. (a monkey)
3. It is very big and grey. (an elephant)
4. This animal likes grass. It is a domestic animal. It gives us milk. (a cow)

Javobini to'g'ri va birinchi bo'lib topgan guruh 1 ball bilan rag'batlantiriladi.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlar qoidali o'yinlar jumlasiga kiradi va rolli o'yinlarni rivojlantirish predmeti hisoblanadi. Bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini tashkil etadi. Didaktik

o‘yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hakazolar takomillashadi.

Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonida bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yin paytida bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O‘yinda o‘quvchilar o‘zlari sezmaganda holda juda ko‘p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Didaktik o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar:

1. Didaktik o‘yinlar o‘quv predmetlari bo‘yicha dastur materialiga muvofiq yo‘sinda tanlanishi lozim.

2. Didaktik o‘yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo‘yicha ma’lum talablar qo‘yiladigan yo‘sinda ishlab chiqilishi kerak.

3. Didaktik o‘yinning muvaffaqiyatli o‘tishi uning maqsadini yaqqol anglashiga bog‘liq. Chunki bunda o‘quvchilarning fikrini maqsadli yo‘nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug‘iladi.

4. O‘yinlarni tanlashda ma’lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o‘yinlardan oldin osonroq o‘yinlarni o‘tkazib, o‘quvchilarni navbatdagi o‘yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa analiz, sintez, taqqoslash, tasniflashda, mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta - sekin murakkablashtirib borish shart.

5. Didaktik o‘yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning turli bo‘sh va kuchli, faol va loqayd guruhlarini hisobga olish kerak.

6. O‘yinning qoidalari sodda, aniq, bo‘lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.

7. Har bir o‘quvchi butun o‘yin jarayonida faol ishtirok etishi, o‘z «navbatini» uzoq, kutish o‘yinga qiziqishini susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.

8. Har bir o‘yinga umumiy va yakka tartibda yondoshish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

«Aylana stol» metodi

O‘yinning maqsadi:

- mavzu va muammoni erkin suhbat asosida tahlil qilishni o‘rgatish, talabalar bilim darajasini tenglashtirish;

- Turli muammolarni tizimli bosqichma - bosqich hal etish yo‘llarini o‘rgatish;

O‘yinni tashkil etish uchun kerak bo‘ladigan vositalar:

-Xonani o‘yin uchun moslagan holda jihozlash ya’ni talabalar yuzma-yuz holatda barcha ishtirokchilarni ko‘rib turishlari lozim bo‘ladi;

- dasturda ko‘rsatilgan tarjima nazariyasiga oid mavzu ma’ruzada tushuntirib berilgan bo‘lishi va qo‘shimcha ma’lumot topib mustaqil o‘qishga vazifa sifatida berilgan bo‘lishi lozim;

-“erkin mikrafon” prinsipini o‘yinda qo‘llash ya’ni so‘zlash navbat asosida emas fikr mavjudligiga ko‘ra tashkil etish;

- Aylana stol ishtirokchilari javob berishi lozim bo‘lgan savol va topshiriqlar bazasini yaratish (mavzuga doir savollar o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yiladi);

- berilgan fikrlarni yanada kengroq shaklda davraning o‘zida muhokama qilish;

«Aylana stol» o‘yinini o‘tkazish bosqichlari

Variriant “A”

Tarjimaga oid mavzular

1. O‘qituvchining mavzuga doir qisqacha kirish so‘zlari;
2. Talabalarga qisqa fikr bildirishni ta’qiqlash ya’ni fikrini kengroq kamida bitta misol bilan ifoda etishni talab qilish;
3. Doira stol atrofida yig‘ilgan ishtirokchilardan ketma - ket fikrlarini olish;
4. Muhokamaning mazmunan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash;

5. Aytilgan fikrlarning natijasi sifatida har bir ishtirokchidan bo‘limga yakunlovchi xulosa fikrini ifoda ettirish;

Varinat “B”

1. Talabalar tayyorgarligini tekshirish maqsadida blits usulida so‘rovnoma o‘tkazish;
2. Mavzuni ketma - ket ma’lumotlar bilan to‘ldirish;
3. Berilgan savollarga berilgan javoblarning yangi ma’lumotni qamrab olganini tekshirib borish;
4. Fikr bildirayotgan talabaning mulohazasini oxirigacha diqqat bilan tinglash;
5. Bahsni odilona baholab borish.

Variant “C”

1. Topshiriq va savollarni tasvirli ifodlash;
2. Har bir tinglovchining ham oldindan tarjima nazariyasi faniga tayyorlagan rasmlil taqdimotini ko‘rish;
3. Talablarning ma’lum bir nazariyaga nisbatan mustaqil fikrini bilish uchun erkin mikrafon suhbatini o‘tkazish;
4. Talabalar o‘z fikrini o‘tqazuvchi suhbatni o‘tkazish (Talabada liderlik xususiyatini rivojlantirish uchun) ;
5. Firkga qarshilik bildirishga talabalarga imkon berish;

O‘yin oxirida nazariyaga nisbatan asosli javoblar e’lon qilinadi va har bir talaba mavzuga doir yakunlovchi fikrlari bilan o‘yin tugatiladi.

Bu bosqichlar orqali “Aylana stol” ishtirokchilari nazariyalarning bir nechtasini guruhdoshlari orqali ham o‘zlashtirib borishadi. Nazariyalarni misollar bilan isbotlash orqali kelajakda o‘z tarjimalarini tahlil qilishni o‘rganadi. «**Aqliy hujum**» metodidan tarjima nazariyasini o‘qitishda quyidagicha foydalanish mumkin. «Aqliy hujum (Brain storming)» metodidan foydalanib tarjima nazariyasi va olimlar fikrlarini taqlidiy yondashgan holda muhokama qilish mumkin. Mazkur metod XX asrning 30 yillarida ta’limga kiritilgan bo‘lib asosan aniq fanlar yo‘nalishida keng foydalanilgan. Bugungi kunga kelib barcha fan sohlarida keng

foydalanilib kelinmoqda. Bu metod nazariyaning kamchiliklarini izlashga asoslanadi. Bugungi kungacha munozarali bo'lgan tarjimaga oid nazariyalar guruhga savol qilib tashlanadi. Bu metod orqali tarjima nazariyasining yangi prinsiplari ishlab chiqilishi uchun foydalaniladi.

«Aqliy hujum» metodining birinchi bosqichi

Variant "A" (Muammoli dars)

1. Muammoni tanlash va uni tushinib yetish. O'qituvchi tarjima nazariyasi fanida mavjud muammolarning bir nechtasini sanab o'tadi. Keyin muammolar xususida talabalarning qisqacha fikrlari eshitiladi, o'yin shartlari kelishib olinadi. O'yin oxiridagi xulosa shakli haqida tushuncha beriladi.

Ma'lumotlarni yaxlitlagan holda xulosa sifatida bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini tashkil etadi deb aytish mumkin. Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hakazolar takomillashadi.

III BOB bo'yicha xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'yinlarning samaradorligini oshirishning eng muhim shartlari quyidagilardan iboratdir:

Psixologik yo'nalishda:

- o'quvchilarning hissiyotli kayfiyati;
- emotsional fondni vujudga keltirish;
- o'quvchilarni o'yinning mazmuni bilan yaqqol va ifodali tanishtirish;
- o'yinda o'qituvchining bolalar bilan baravar-qatnashuvi;
- o'yin jarayonida she'rlar o'qish, kuylash, raqs tushish, taqlid qilish, imo-
ishoralarni bajarish, shuningdek, o'yinga tayyorlanish jarayonida o'yinda va uyga
berilgan topshiriqlarni bajarishda tasviriy ijod bilan shug'ullanish.

- ularning navbatdagi o'yin faoliyatiga shaxsan qiziqish bilan ijobiy munosabatda bo'lishini: o'yinda zarur bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishini;

- o‘yingacha, o‘yin jarayonida va undan keyin o‘qituvchining barcha talablarini bajarishlarini.

Muammoni hal qilishning optimal psixologik - pedagogik shartlari quyidagilardan iboratdir:

- mazmunan dolzarb o‘zbek xalq o‘yinlari majmuasini tanlash;

- o‘quvchilarni o‘yin faoliyatiga emotsional jihatdan shaylash;

-o‘qituvchining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘zbek xalq, o‘yinlariga qiziqтира olishi;

-o‘zbek xalq, o‘yinlariga raxbarlik qilish mazmunini, shakllari va metodlarining birligi;

- o‘yin jarayonining hayotiyliigi, uning haqqoniyliigi;

O‘yinlarni o‘tkazishning tarbiyaviy maqsadi va vazifalari uchta (boshlangich, asosiy, yakunlovchi) bosqichda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich bosqich — o‘quvchilar bilan ularning yoshiga mos, tushunarli, ijodiy yo‘sindagi tayyorgarlik ishlarini olib borishdir.

Ana shu ishlar orqali o‘yinlar o‘quvchilarda o‘z xalqining tarixiga, an‘analariga, xalq ijodiga, shu jumladan, o‘yinlariga, o‘zbek xalqining qahramonona, inqilobiy o‘tmishiga qiziqish hamda mehnatga xurmat va muhabbat uyg‘otishi lozim. Shuningdek, ularda respublikamizning mehnatdagi yutuqlari bilan faxrlanish hissini, xalq, yaratgan go‘zal narsalarga muhabbat tuyg‘usini, tabiatdagi boyliklarni qo‘riqlash ehtiyojini tarkib toptirish zarur.

Asosiy bosqich — bolalarni bevosita o‘yinga tayyorlash, o‘yin jarayonida bolalarning har xil o‘yin faoliyatini boshqarishi, uyga vazifa berish va hakazolardan iboratdir.

Yakunlovchi bosqich - mazkur o‘yindagi barcha pedagogik-psixologik jarayonlarning natijalarini jamlashdir.

Didaktik o‘yinlar qoidali o‘yinlar jumlasiga kiradi va rolli o‘yinlarni rivojlantirish predmeti hisoblanadi. Bunday o‘yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o‘yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini tashkil etadi. Didaktik o‘yinlarda asosiy fikrlash

jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hakazolar takomillashadi. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli metodik o'yinlarni qo'llash paytida bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O'yinda o'quvchilar o'zlari sezmaganda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Xulosa

Rivojlangan va rivojlanayotgan ko'pchilik davlatlarda taraqqiyotning asosi sifatida ko'rsatiladigan ta'lim sohasi XXI asr – axborot asrida yanada taraqqiy topib bormoqda. Ta'lim jarayonida axbarot texnologiyalaridan foydalanish bilan birgalikda turli ta'lim texnologiyalaridan ham foydalanish keng tarqalgan. Ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillaridan hisoblangan innovatsion g'oyalar ta'lim tarbiya jarayonini har tomonlama mukammal, qiziqarli va interfaol usulda olib borilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda dars o'tish jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini dars vaqtida qo'llashga bo'lgan ishtiyoq, e'tibor kundan-kunga kuchayib, oshib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida, shu vaqtgacha qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy ta'lim usulida o'quvchi-talabalarni faqat aniq tuzilishga ega tayyor shakldagi bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, analiz va sintez qilishlariga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari qabul qilishga o'rgatadi. O'z navbatida erkin va ijodiy fikrlaydigan o'quvchilar kelajakda har qanday sohada faoliyat olib bormasin doimo yangilik yaratishga, jarayonni rivojlantirishga, yanada jadallashtirishga harakat qildi.

Shu sababli oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida yuqori malakali kasb-hunar egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning roli va o'rnini juda kattadir. Pedagogikaga oid tajriba, bilim va interaktiv usullar o'quvchi-talabalarni bilimli, chuqur bilim va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga yosh kadrlarni ma'lum bir masala ustida keng, har tomonlama o'ylagan holda qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Shu o'rinda oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etish bo'yicha biz aytib o'tgan ma'ruza shakllari biz o'ylaymizki kelajakda o'z tadbiqini topadi. Noan'anaviylik orqali yondashilgan ma'ruzalar kutilgan natijalarni beradi deb umid qilamiz.

Innovatsion va pedagogik texnologiyalar muammolari, masalalarini o'rganayotgan o'qituvchi professorlar, amaliyotchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, pedagogik texnologiya – bu faqatgina axborot texnologiyasi bilan bog'liq shuningdek o'qitish jarayonida qo'llanishi lozim bo'lgan Axborot kompyuter texnologiyalari, masofaviy o'qish, yoki har xil texnikalardan foydalanish deb ataladi. Pedagogik asosi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalar muhim rol o'ynaydi, ya'ni dars jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi professor-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etilgan hamkorlik faoliyatini rivojlantira olsa, har ikkalasi tomon ham kutilgan ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar erkin fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, analiz va sintez qila olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'z-o'ziga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o'qitish jarayonining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Har bir mavzu, dars, o'quv jarayonining o'ziga xos texnologiyasi mavjud, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon hisoblanib, u ta'lim oluvchilarning ehtiyoj va talabidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan reja qilingan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Rivojlangan bir qator mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda respublikamizning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish bugungi kunning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.,1998. – 62 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim haqida»gi Qonuni. – T., 1997. 29 avgust.
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – T., 1997. 29 avgust.
4. Alimova D. A, Axmetova K. I, Abdullayeva R.. M. Didaktik materiallar majmuasi va vositalari. O'quv qo'llanma. – T.,2006. – 147 b.
5. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish yo'llari. O'quv-uslubiy ishlanmalar to'plami. – T., TDIU. 2005. 301 b.
6. Daminov N.K. Chet tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati. // Zamonaviy tilshunoslikning va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari.// Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallari. 1qism. Samarqand 2015.
7. Gulboev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish. Navoiy., 2001. –94 b.
8. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T., - 2000.- 66 b.
9. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Navoiy., Nasaf. 2000. – 124 b.
10. «O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi tizimining raxbar, pedagog va muxandis-pedagog kadrlari malakasini oshirishning ilmiy-metodik muammolari». Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2003.
11. Tojiev M., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.,2001. – 87 b.
12. Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent., Fan. 2005. – 183 b.
13. Ta'lim va tarbiya. Jurnal. 3 – 4 – sonlar. 2005.
14. Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 1 – 2 – sonlar. 2004.
15. Xalq ta'limi. Jurnal. 1 – 2 – sonlar. 2005 .

16. Xujaev N., Sharipov SH., Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. – T., 2005. – 126 b.
17. Xujaev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T., 2003. - 316 b.
18. Xujaev N. va boshqalar. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T., Fan. 2002. -76 b.
19. Ziyomammedov B., Abdullaeva SH., Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. «Ma’naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo‘llanma. – T., 2001. – 164 b.
20. Азизхўжаева Н. Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Тошкент: ТДПУ, 2003. - 89 б.
21. Баҳриев А., Баҳриева Н. //Янги педагогик технологиялар орқали ўқитишда ички мотивацияни шакллантириш. // “Халқ таълими” журнали, 2006, № 6. – 25 - 28 б.
22. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995. - 86с.
23. Бродский М. Ю. Упражнения по английской грамматике для переводчиков: Практикум. Екатеринбург: ИМС, 2004. – 56 с.
24. Бреус Е. В. Теория и практика перевода с английского языка на русский: Учебное пособие. Ч. 1. - М.: Ун-т Рос. Акад. образования, 2001. – 104 с.
25. Вейхман Г.А. Новое в грамматике современного английского языка. М.: Изд-во Астрель, АСТ, 2002. – 544 с.
26. Гапонцева Т.М. Дипломная работа:Дидактика перевода: работа над созданием пособия "Грамматические аспекты перевода. Екатеринбург., – 2010.
27. Гордон Е.М., Крылова И.П. Грамматика современного английского языка. Учебник для институтов и факультетов иностранного языка. Высшая школа. 1974. – 336 с.

28. Зражевская Т.А., Беляева Л.М. Трудности перевода с английского языка на русский. М.: Междунар. отношения, 1972. – 144 с.
29. Жумаев А. Бўлажак ўқитувчи шахсининг ижтимоий фаоллик омиллари./ “Халқ таълими” журнали, 2006, № 6. – 17 - 20 б.
30. Ильин М. С. О классификации упражнений в речевой деятельности // Иностранные языки в школе, 1961. №5. С. 29-34.
31. Казакова Т.А. Практические основы перевода. English Û Russian. СПб.: Изд-воСоюз, 2000.
32. Коменский Я.А. Буюк дидактика.Тошкент. «Ўқитувчи».1975. - 174 б.
33. Комиссаров В. Н. Теоретические основы методики обучения переводу. М.: Рема, 1997. – 153 с.
34. Латышев Л. К. Технология перевода. М.: НВИ – Тезаурус, 2000. – 280с.
35. Латышев Л. К., Проворотов В.И. Структура и содержание подготовки переводчиков в языковом вузе. М.: НВИ – Тезаурус, 2001. – 136 с.
36. Левицкая О. С., Фитерман А. М. Теория и практика перевода с английского языка на русский. М.: Литературы на иностранных языках, 1963. – 264 с.
37. Левицкая О. С., Фитерман А. М. Пособие по переводу с английского языка на русский. М.: Высшая школа, 1973. – 136 с.
38. Левицкая О. С., Фитерман А. М. Проблемы перевода. М.: Международные отношения, 1976. – 208 с.
39. Нелюбин Л. Л., Князева Е. Г. Переводоведческая лингводидактика: учебно-методическое пособие. М.: Флинта: Наука, 2009. – 320 с.
40. Педагогика профессионального образования. Под ред. В. А. Сластенина. -М.: Академия, 2004.
41. Питюков В.Ю. Основные педагогической технологии. –М.: Гном-Пресс, 1999.
42. Поульсен С. Введение в современную методику преподавания.- Бишкек: Кесип, 2007. - 146 с.

43. Пассов Е.И. Формирование лексических навыков говорения. Воронеж: НОУ Интерлингва, 2002(а) – 40 с. (Серия "Методика обучения иностранным языкам", №8)
44. Пассов Е.И. Упражнения как средство обучения. Ч.1: учебное пособие/Под редакцией Е.С. Кузнецовой. Воронеж: НОУ Интерлингва, 2002(б) – 40 с.
45. Пассов Е.И. Упражнения как средство обучения. Ч.2: учебное пособие/Под редакцией Е.С. Кузнецовой. Воронеж: НОУ Интерлингва, 2002(в) – 40 с.
46. Пассов Е.И. Методология методики: теория и опыт применения (Избранное). Липецк: РИЦ ЛГПУ, 2002(г) – 228 с.
47. Пумпянский А. Л. Введение в практику перевода научной и технической литературы на английский язык.-2-ое, дополненное изд. М.: Наука, 1981. – 343 с.
48. Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. М.: Р.Валент, 2004. – 240 с.
49. Рубцова М. Г. Чтение и перевод английской научно-технической литературы: Лексико-грамматический справочник.М.: АСТ, 2002. – 384 с.
50. Стронин, М. Ф. Обучающие игры на уроке английского языка. М. Ф. Стронин - М.: Просвещение, 1984. - 55 с.
51. Степанянц О. Игровые технологии на уроках английского языка. «Английский язык. Всё для учителя». Москва: № 4 (4) апрель –2012 .
52. Толипова Ж., Нумонова Н. Таълим-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялар. // “Халқ таълими” журнали, 2002. № 3. – 20 - 24 б.
53. Штанов А.В.Технология перевода и методика преподавания. Изд. МГИМО-Университет. – 2011.
54. Хайрулина О. И. Методические рекомендации по теории перевода для студентов очно-заочного отделения: Издательство Санкт-Петербургского государственного университета экономики и финансов. – 2011. – С. 36.

55. Хўжаев Н. Х., Ходиев Б. Ю., Баубекова Г. Д., Тилабова Н. Т. Янги педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2002.
56. Қудратов Р. Ўқув фаолияти-ижтимоий ходиса. // “Халқ таълими” журнали, 2002, № 4. -58-61 б.
57. Ҳасанбоев Ж., Сарибоев Ҳ., Ниёзов Г., Ҳасанбоева О., Усмонбоева М. Педагогика. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Фан, 2006. 102 б.

Foydalanilgan lug’atlar

58. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – 3–е изд., перераб. М.: Флинта. Наука, 2003. – 320с. [НТПС]
59. Палажченко П.Р. Мой несистематический словарь (Из записной книжки переводчика). М.: Р.Валент, 2004. – 304 с. [ПМНС]
60. Longman Dictionary of American English. Longman, 2009. – 1200 p. [LDAE]
61. The Newbury House Dictionary of American English Boston, MA: Heinle & Heinle, 1999. With CD-ROM. [NHDAE]

Internet saytlari

62. www.bilimdon.uz. – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.
63. www.de.uz. – Masofaviy ta’lim tizimiga bag‘ishlangan veb sayt.
64. www.plekhanov.ru. – Plekhanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.
65. www.tgeu.uz. TDIU veb sayti.